

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX VA IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI

TARIX KAFEDRASI

Abduazizova Yulduz Abduaziz qizining

**“5220200-Tarix (Mamlakatlari va mintaqalar bo‘yicha)” yo‘nalishi bo‘yicha
bachelor darajasini olish uchun**

**“Qashqadaryo viloyatida sanoat salohiyatini rivojlantirilishi (2013-2014
yillar)”**

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIIY ISHI

Ilmiy rahbar: _____ dots.J.Ergasheva

“Himoyaga tavsiya etildi”

Tarix fakulteti dekani

_____ dots.F.Rahmonov

“ _____ ” _____ 2015 yil

Qarshi – 2015

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB Qashqadaryo viloyat sanoat tarmoqlarida o'sish sur'atlarini ta'minlovchi strategiyani davom ettilishi	
1.1. O'zbekistonda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqishda Qashaqadaryo viloyatini o'rni.....	7
1.2. Qashqadaryoda yengil sanoat sohasida modernizatsiya ishlarining amalga oshirilishi	15
1.3. Qashqadaryo sanoatini rivojlantirishda kichik beznis va xususiy tadbirkorlikning o'rni.....	20
II BOB Qashqadaryo viloyatida sanoat salohiyatini rivojlantirilishini yanada takomillashtirilishi	
2.1. Qashqadaryoda yirik investisiya loyihasining amalga oshirilishi.	25
2.2. Qashqadaryoda samarali pul kredit siyosatining rivojlantirilishi.....	35
2.3. Qashqadaryoda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi.....	39
Xulosa.....	46
Adabiyotlar ro'yxati.....	49
Ilovalar.....	51

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng tariximizni xolis yoritishimizga keng imkoniyatlar paydo bo'ldi. O'zbekiston “bir tomchi qonsiz” o'z mustaqillik va ozodligini qo'lga kiritdi. Tarixan o'rganilganda esa, hozirgi mustaqillik Rossiyaning qayta-qayta uyushtirgan tajovuzlariga va hukmronligiga qarshi xalqimizning olib borgan ozodlik kurashlarining ham natijasidir.

Bu erk va ozodlikni qadriga yetish uchun O'zbekistonning kelajagini tebratuvchi yoshlarimiz uchun erksizlik davrida kechgan fojeali davrlar tarixini to'laqonli tarzda bilishlari, o'rganishlari hozirgi kunlarda dolzarb masala bo'lib turibdi. Vatanga sadoqat, uni xavf-xatarlardan, falokatlardan ko'z qorachig'idek asrash har bir yosh avlodning burchi, imon-e'tiqodiga aylanmog'i shart.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, “Mustaqillik yillari o'z o'tmishimizni, o'z madaniyatimizni xolisona bilib olish davridir. Bu jahon hamjamiyati, tarix oldidagi vazifamizni anglab olish davridir¹.”

Bugungi kunda davlat va jamiyat qurilishi sohasida mamlakatimiz oldida o'zining miqyosi va qamroviga ko'ra ulkan vazifalar turibdi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hali beri davom etayotgan og'ir bir sharoitda iqtisodiyotimizning yanada barqaror rivojlanishini ta'minlash, uni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash borasidagi ishlarni izchil davom ettirishimiz zarur.

Mamlakatimiz va butun dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy sharoitda bizning zimmamizda mamlakatimizning xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash, shu muqaddas zaminimizda hukm surayotgan tinch-osoyishta hayotni saqlash kabi bir-biridan mas'uliyatni va keng ko'lamdagi bir qator vazifalar borki, yurtimizning, jondan aziz farzandlarimizning bugungi va ertangi kuni ana shu masalalarni qanchalik muvaffaqiyat bilan hal etishimizga bog'liqdir. Bu vazifalarni

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: “O'zbekiston”, 1998., 178-bet.

hal etish Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Bu islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, 2009-2012 yillarga mo'ljallangan inqirozga qarshi choralar dasturini so'zsiz bajarish va shu asosda iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashdan iboratdir"¹.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlanishida Qashqadaryo viloyatining munosib o'rni bor.

Qashqadaryo oxirgi yillar davomida taraqqiyot yo'lida quyidagi yutuqlarni qo'lga kiritmoqda.

Viloyat yalpi hududiy mahsulotida sanoatning ulushi 39 foizni tashkil qiladi. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz yalpi sanoat mahsulotining qariyb 13 foizi aynan Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilmoqda.

Bunday natijalarga erishishda viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan, mamlakatimiz iqtisodiyotining faxri bo'lgan yirik zamonaviy korxonalar katta hissa qo'shayapti. Yiliga 125 ming tonna polietilen ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan Sho'rtan gaz-kimyo kompleksi negizida iqtisodiyotimizda mutlaqo yangi tarmoq - gazni chuqur qayta ishlash tarmog'i vujudga keldi, ushbu korxonada yangi-zamonaviy industrial majmualarni barpo etishda asosiy tayanch vazifasini bajaryapti.

Yurtimizda shu sohaga mansub, umumiy qiymati 10 milliard dollardan ziyod bo'lgan yirik loyihalarni amalga oshirish, jumladan, Qashqadaryoda eng yuksak texnologiyalarga asoslangan Sho'rtan sintetik yoqilg'i ishlab chiqarish majmuasi, Muborak gaz-kimyo kompleksi kabi zamonaviy sanoat korxonalari shular qatoriga kiradi.

"Qashqadaryo, haqiqatan ham, bag'ri daryo, beqiyos o'lka. Bu voha odamlari bilan birga ishlash nasib etgani, hayotimning eng jo'shqin, eng harakatchan davrida mard va tanti Qashqadaryo ahli bilan bir tanu, bir jon bo'lib mehnat qilganim, menga shunday hayot maktabini o'tash baxtini bergani uchun

¹ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: "O'zbekiston", 2010., 55-bet.

taqdirdan minnatdorman”¹ deb e’tirof etdi yurtboshimiz Qashqadaryoga qilgan safarlarida.

BMI ning maqsad va vazifalari: 2013-2014 yillar davomida Qashqadaryoda sanoat salohiyatini rivojlantirilishini, viloyatda yirik investisiya loyihasining amalga oshilish borasida to'plangan tajribalarni umumlashtirish, ilmiy xulosalar chiqarishdan iborat. Umumiy maqsaddan kelib chiqib tadqiqotning aniq vazifalari quyidagicha belgilanadi:

- O'zbekistonda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqishda Qashqadaryo viloyatini o'rnini ko'rsatib berish;
- Qashqadaryoda yengil sanoat sohasida modernizatsiya ishlarining amalga oshirilishini tadqiq etish;
- Qashqadaryo sanoatini rivojlantirishda kichik beznis va xususiy tadbirkorlikning o'rnini yoritish;
- Qashqadaryoda yirik investisiya loyihasining amalga oshirilishini holis tahlil qilish;
- Qashqadaryoda samarali pul kredit siyosatining rivojlantirilishini tadqiq etish;
- Qashqadaryoda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishini manbalar asosida tasvirlash.

BMI ning nazariy metodologik asosi: Bilish nazariyasi va milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillari tashkil etadi. Ishni bayon etishda O'zbekiston tarixini tamoyillariga tayangan holda tarixiylik, ilmiylik, xolislik, uzviylik kabi metodologik tamoyillarga tayanildi. Tadqiqotning muhim nazariy asosini Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, hukumatning turli mazmundagi hujjatlari hamda Prezident I.A.Karimov asarlari, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi yo'l-yo'riqlari va ko'rsatmalari tashkil etadi.

¹ Karimov I. O'zbekiston erishgan yutuq va marralar –biz tanlagan islohotlar yulining tasdig'idir. 22 jild-T: “O'zbekiston”, 2014. b-17

Malakaviy Ishning obykti va predmeti.

Qashqadaryo viloyatidagi sanoat korxonalari ishning obyktini tashkil etadi. 2013-2014-yillar davomida Qashqadaryo viloyati sanoat salohiyatini rivijlanishiga qaratilgan islohotlar ishning predmetini belgilaydi.

Ishning ilmiy yangiligini shundaki, malakaviy ishda Qashqadaryo viloyatida 2013-2014 yillar maboynida sanoat salohiyatini rivojlantirilishini ilmiy iste'molga kiritilmagan manbalar asosida ilk bor yoritilishidadir.

BMI ning amaliy ahamiyati. Malakaviy ishda ilmiy muomalaga kiritilgan manbalar O'zbekiston tarixining yangi davri tarixini o'rganuvchi talabalar, o'quvchilar uchun axborot manbai bo'la oladi. Ishdagi umumlashtirilgan xulosalardan foydalangan holda gumanitar fanlarni o'qitishga iqtisoslashgan akademik litsey, kollejlarda "O'zbekiston janubiy viloyatlarida sanoat salohiyatining rivojlantirilishi" mavzusida tanlov ishlari taqdimotini tashkil qilishda foydalanish mumkin.

Ishning aprobatsiyasi. BMI QDU Tarix va ijtimoiy fanlar tarix fakulteti, Tarix kafedrasining "yosh o'lkashunos" to'garagida muhokama etilgan.

Ishning xajmi va strukturasi.

Bitiruv malakaviy ish kirish, 2ta bob, xulosa, tavsiyalar, adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat.

I BOB.QASHQADARYO VILOYATI SANOAT TARMOQLARIDA O'SISH SUR'ATLARINI TA'MINLOVCHI STRATEGIYANI DAVOM ETTIRILISHI.

I.1. O'zbekistonda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqishda Qashaqadaryo viloyatini o'rni

Qashqadaryo O'zbekistonning eng qadimiy tarixga, o'ziga xos madaniyatga ega, yer osti va yer usti boyliklari ko'pligi bilan ajralib turadigan, bugun har tomonlama jadal rivojlanayotgan viloyatlaridan biridir. Qadimdan dehqonchilik va shaharsozlik o'choqlaridan biri bo'lgan.

Qashqadaryo Sharqda Tojikiston, Janubda Turkmaniston davlat-lari hamda Shimolda Samarqand, Janubi-SHarqda Surxondaryo, G'arbda Buxoro va Navoiy viloyatlari bilan chegaradosh.

Viloyat 1943 yilda tashkil topgan. Maydoni 28,6 ming kv. km, aholisi 2919,8 mingdan ortiq. Viloyatga bo'ysunuvchi Qarshi shahri, 13 ta tuman, tumanga bo'ysinuvchi 11 ta shahar, 123 ta shahar tipidagi posyolkalar, mingdan oshiq qo'rg'oncha va qishloqlar mavjud. Aholining katta qismi Qarshi shahri, Chiroqchi, Shahrisabz, Koson, Kitob, Yakkabog' va Qamashi tumanlarida istiqomat qiladi. Muborak tumanida eng kam 78,2 ming kishi istiqomat qiladi.¹

Viloyatning markazi - Qarshi shahri 2700 yillik tarixga ega. Transport va aloqa tarmog'i yaxshi rivojlangan. Qarshi va Shahrisabz shaharlarida aeroportlar mavjud. Qo'shni respublikalar va viloyatlar bilan temir yo'l va avtomobil yo'llari orqali bog'langan.

Qashqadaryo viloyatning rivojlanishida Prezident Islom Karimovning viloyatga rahbarlik qilgan yillari (1986-1989) ayniqsa samarali bo'ldi.

Qashqadaryo O'zbekiston iqlimi va tabiatining barcha xilma-xilliklarini,rang-barangligini, sahovatli, mehnatkash mard va oriyatli halqining

¹ 2014 yil qurilishlari: yo'nalishdagi bunyodkorlik. // Qashqadaryo, 2015 yil 1 yanvar.

ulug'vorligini o'zida aks ettiradi. Viloyatda abadiy muzliklar, archazorlar, dorivor va ziravor noyob o'simliklar bilan qoplangan purviqor tog'lar, qir-adirlar ham, tuprog'i serunum cho'llar va saksovullar o'sadigan, barxanli qumlari bo'lgan sahroga tutash hududlari ham bor. Tabiiyki, shunga muvofiq yer osti va yer usti boyliklari, hayvonot va o'simliklar dunyosi, dehqonchilik tarkibi ham rang-barang.

G'uzor, Nishon, Mirishkor, Muborak, Koson tumanlari xududlari uglevodorod qazilmalari - gaz va neftga boy bo'lsa, Qamashi, Yakkabog', Kitob, Shahrisabz, Dehqonobod tog'lari ma'danlarga va foydali noruda tog' jinslariga, ba'zi noyob kimyoviy elementlarga boy. Mamlakatda qazib chiqarilayotgan tabiiy gaz va neftning 90 foizdan ortig'i viloyatda olinadi. Bundan tashqari viloyatda marganets, qo'rg'oshin, toshko'mir, yonuvchi slanets va boshqa 20 ga yaqin foydali qazilmalar topilgan.

Qarshi cho'li o'zlashtirilishi jarayonida 50 dan ortiq yangi xo'jaliklar, Nishon, Mirishkor, Kasbi, Muborak tumanlari tuzilgan, Qarshi va Koson tumanlari ham yangi o'zlashtirilgan yerlar hisobiga ancha boyigan. Qarshi cho'lini o'zlashtirish uchun Amudaryo suvi nasos stantsiyalari yordamida 132 metrga ko'tarib berilgan. Viloyatda Talimarjon, Chimqurg'on, Hisorak, Pachkamar kabi yirik suv omborlari, ko'p tarmoqli irrigatsiya va melioratsiya inshootlari mavjud.

Hozirgi kunda qo'lga kiritilayotgan ulkan natijalarning muhim omili – O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin "o'zbek modeli" deb nom olgan va mashhur besh tamoyilga asoslangan taraqqiyot yo'limiz takror va takror to'g'ri yo'ldan ketayotganlimizni isbotlamoqda.

Qashqadaryo oxirgi yillar davomida taraqqiyot yo'lida katta yutuqlarda erishmoqda.

Ta'kidlash joizki, 2013 yil yakunida viloyatimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati, amalda 105,6 foizni tashkil etdi, 2000 yilda 241 mlrd.so'mlik YaIM ishlab chiqarilgan bo'lsa 2012 yilda 7538,1 mlrd.so'mni, 2013 yilda 8828,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.

2013 yilda sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish yalpi xududiy maxsulotning 37,4 foizini tashkil etib, sanoat maxsulotlarining o'sishi o'tgan yilga

nisbatan 4,1 foiz, Qishloq ho'jaligi mahsulotlari yetishtirish 6,8 foiz, chakana savdo aylanmasi 15,6 foiz va aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish 16,8 foizga barqaror yuqori sur'atlar bilan o'sdi.

Joriy yilda ham bunday o'sish sur'atlari davom etmoqda.

Iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o'zgarishlarini birgina misolda, ya'ni 2000-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda sanoat ishlab chiqarishining ulushi bor-yo'g'i 18,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yildan 2013 yillar davomida bu ko'rsatkich o'rtacha 41,5 foizga yetganida yakqol ko'rish mumkin.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz yalpi sanoat mahsulotining qariyb 9,5 foizi aynan Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilmoqda.

Sanoat mahsuloti umumiy o'sishining qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sohalar tashkil etdi. Bugungi kunda iqtisodiyotimizning lokomotiviga aylangan kimyo va neft-kimyo sanoati (75,9 foiz), oziq-ovqat sanoati (6,2 foiz), qurilish materiallari sanoati (1,8 foiz) 2013 yilda jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2013 yilda 13 foizga o'sdi, 2000 yilda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish axoli jon boshiga 22,6 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 219,3 ming so'mni tashkil etdi.

Viloyat sanoati respublikada salmoqli o'rin egallaydi. O'tgan yilda 303 ta yangi sanoat korxonasi ishga tushirildi.

Viloyatimizda mustaqillikning dastlabki yillarida 250 ta sanoat korxonalari tomonidan 57 turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lsa, Respublika hukumati hamda Iqtisodiyot vazirligining sanoat tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan islohotlari natijasida bugungi kunda viloyatda 2947 ta sanoat korxonalarida 60 ga yaqin turdagi (30 ta turda tayyor mahsulotlar) yangi tur mahsulotlari ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan.

Bunday natijalarga erishishda viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan, mamlakatimiz iqtisodiyotining faxri bo'lgan yirik zamonaviy korxonalar katta hissa qo'shayotganini e'tirof etish lozim.

Xozirgi kunda neft, gaz va kondensatdan jadal foydalanish bilan birga ximiya maxsulotlari, kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish kabi yangi tarmoqlar ham foydalanishga topshirilmoqda.

Hududda amalga oshirilgan yirik investitsiya loyihalaridan “Muborakneftgaz” USHK, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, “SHo'rtangazkimyo” GKM, Dehqonobod “Kaliyli o'g'itlar zavodi”, “Talimarjon” IES nafaqat respublikamizda, balki butun Markaziy Osiyoda ham eng yirik korxonalar sirasiga kiradi.

Jumladan, Yiliga 125 ming tonna polietilen ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan Sho'rtan gaz-kimyo kompleksi negizida iqtisodiyotimizda mutlaqo yangi tarmoq – gazni chuqur qayta ishlash tarmog'i vujudga kelganini, ushbu korxonada yangi-yangi zamonaviy industrial majmualarni barpo etishda asosiy tayanch vazifasini bajarayotganini alohida ta'kidlash kerak. Yurtimizda shu sohaga mansub, umumiy qiymati 10 milliard dollardan ziyod bo'lgan yirik loyihalarni amalga oshirish, jumladan, Qashqadaryoda eng yuksak texnologiyalarga asoslangan Sho'rtan sintetik yoqilg'i ishlab chiqarish majmuasi, Muborak gaz-kimyo kompleksi kabi zamonaviy sanoat korxonalari shular qatoriga kiradi.¹

Yirik investitsiya loyihasi asosida Talimarjon issiqlik elektr stantsiyasida yiliga 900 megavatt elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan ikkita bug'-gaz qurilmasini qurish ishlari boshlab yuborildi.

Shuningdek, 2013 yilda “Dehqonobod kaliyli ug'itlar” zavodida kaliyli ug'itlar ishlab chiqarish quvvatini oshirish (2-navbati) loyixasi, Talimarjon IESni kengaytirish xisobiga 450 MVt quvvatli ikki bug'gazli qurilmasi qurilishiga va detander-generator qurilmasi qurilishiga,

“ASIA TRANS GAS” O'zbekiston-Xitoy QK gazoprovod qurilishi loyixasiga, Marakand-Qarshi temir yo'l uchastkasini elektrofikatsiya ishlariga,

¹ 2014 yil qurilishlari: yo'nalishdagi bunyodkorlik. // Qashqadaryo, 2015 yil 1 yanvar.

“Yunitel” MCHJ, IP OOO Lukoilga “Koton Road” O‘zbek-Amerika-Turkiya qo‘shma korxonasi ga mablag‘lar o‘zlashtirilmoqda.

2013 yil yakuni bilan Tallimarjon IES-Sog‘diana podstantsiya 500 kVli xavo liniyasi xamda Tallimarjon IESda ORU-500 kV quvvati 218 km va 3x167 ming kVtli loyixasining birinchi navbati foydalanishga topshirildi.

Mustaqillik yillarida viloyatda, shuningdek paxta va g‘alla mahsulotlarini qayta ishlash jadal rivojlana boshladi. Agar mustaqillikkacha paxta xom ashyosi faqat birlamchi qayta ishlanib, asosiy mahsulot-paxta tolasi deyarli to‘liq viloyatdan olib ketilgan bo‘lsa, mustaqillik yillari viloyatda kalava ip, trikotaj va mato ishlab chiqaradigan zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan “Cotton-road”, “Oqsaroy textily”, “Yakkabog‘ oq oltin” OAJ kabi “Yakkabog‘ Xumo” teks, "ZAUS-SARDOR"i/ch korxonalari paydo bo‘ldi va ular soni ko‘paymoqda, mavjudlarining quvvati oshmoqda.

1991 yilda viloyatda bor yo‘g‘i 97 ta sanoat korxonasi (3,7 mlrd.so‘m) mavjud bo‘lgan bo‘lsa 2014 yilda faoliyat yuritayotgan 2982 tani sanoat korxonalari tomonidan 6 oyda 2 trln 908 mlrd 6 mln so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsuloti hajmi 108 foizni tashkil etdi.

Jami sanoatdagi yuqori o‘rinni egallagan yoqilg‘i sanoati ulishi 2011 yilda 83,1 foizni tashkil etgan bulsa 2013 yilda 69,5 foizni tashkil etmoqda, yengil sanoatning ulushi 8,2 foizga 8,9 foiz, oziq-ovqat sanoatining ulushi 2011 yilda 4,7 foizdan 2013 yilda 6,2 foiz, qurilish materiallari sanoatining ulushi 2011 yilda 1,7 foizdan 2013 yilda 1,9 foizni tashkil qilmoqda

Xususan, 2013 yilda yoqilg‘i sanoatida 1,6 foizga, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatida 57,5 foizga, qurilish materiallari sanoatida 16,3 foizga, oziq-ovqat sanoatida 20,5 foizga va yengil sanoatda 10,7 foizga o‘shishga erishildi.

2013 yilda xalq iste‘moli mollari ishlab chiqarish hajmi 634,8 mlrd.so‘mni, usish sur‘ati 113 foizni tashkil etdi. Bu asosan tayyor oziq-ovqat iste‘mol mollarining 12.9 foizga, (makaron, o‘simlik yog‘i, qayta ishlangan sut va sut mahsulotlari,pishloq va yog‘li brinzalar ishlab chiqarish) va nooziq ovqat

iste'moli mollarning 13,3 foizga, (alyumin kompozitli qoplamalar, tayyor kiyim kechaklar, energiya tejoychi lampochkalar) oshishidan ta'minlandi.

Viloyatda Yengil sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 392 tani (93 tasi to'qimachilik, 13 tasi trikotaj mahsulotlari, 276 tasi tikuvchilik, 7 tasi ipakchilik mahsulotlari va 3 tasi paypoq mahsulotlari) tashkil etadi.

Ushbu korxonalarda 2014 yilning 1 yanvar holatida yillik ishlab chiqarish quvvatlari kalava ip bo'yicha 11,2 ming tonnani, ip gazlama ishlab chiqarish bo'yicha 2,9 mln.kv.metrni, trikotaj mato bo'yicha 2,9 ming tonnani, tikuvchilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish 4,0 mln.donani, paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha esa 1,1 mln. juftni tashkil etadi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 2 avgustdagi "2013-2016 yillarda Qashqadaryo viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi PQ-2017 sonli qarori hamda 2013-2015 yillarda Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish dasturi va boshqa dasturlarga ko'ra 2013 yilning o'tgan davrida 303 ta korxonalar yangidan ishga tushirildi

Xozirgi kunda dasturda kuzda tutilgan lak buyoq mahsulotlari ishlab chiqaradigan "SAFIT CARB» qushma korxonasi, politelin mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha "Barakali Qashqadaryo savdo, "Meva-sabzavotni qayta ishlashga ixtisoslashgan "Go'zalsavdoservis" MCHJ, meva danaklaridan va noan'anaviy moyli ekinlardan o'simlik yog'i ishlab chiqaradigan "Sevaz tabiiy sharbatlari" ShK, "Sevinch" xususiy firmasi (Kitob tumanida) sutni qayta ishlashga mo'ljallangan "Alibobo orzusi" xususiy korxonasi (Koson tumanida), tayyor kiyim kechaklar, tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan "Lola jaxon" "Likala furnitura" "Sanam" MCHJlari (Qarshi shahrida) pishiq g'isht ishlab chiqaradigan "Sangzar industriya" MCHJ (Kitob tumanida) korxonalari o'z faoliyatini boshladi.

Qarshi shahrida "Radion silk" qo'shma korxonasi tomonidan 1,8 mln.doll. mablag' evaziga yiliga 120 tonna pillani qayta ishlash loyihalari amalga oshirildi.

Dasturdagi loyihalarni amalga oshirilishi natijasida viloyatda 9 ta yangi turdagi (ko'mir briket, biogaz, tibbiyot gipsi, bint, elektr-maishiy tovarlar, oshlangan teri va bolalar o'yinchoqlari kabi) mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Ushbu dastur bo'yicha 2013 yilda 263 ta sanoat ishlab chiqarishi loyihalar ishga tushirilib, 4564 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Masalan, joriy yilning 6 oyida yalpi hududiy mahsulot hajmi 4 trln. 349 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,1 foizga oshgan, xususan, sanoat mahsulotlari hajmi 8 foizga, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish hajmi 5,7 foizga ko'paygan. Hisobot davrida viloyatda 30 ta yirik sanoat korxonasida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotidan 21 ta turida o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sishga erishilgan.

Hududiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 65,5 mlrd. so'mga ko'payib, uning jami viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi o'tgan yilning mos davridagi 15 foizdan 15,6 foizga yetgan.

Hisobot davrida o'tgan yilning olti oyiga nisbatan 5,7 foizga ko'p xalq iste'moli mollari ishlab chiqarildi. Jumladan, oziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 4,5 foizga, nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ko'lami 7,9 foizga ortgan. 65 ta iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi sanoat korxonasi yangidan ishga tushirildi va 32 ta korxonada modernizatsiya ishlari amalga oshirildi. Boshqa bir ahmiyatli raqamlarni ham keltirib o'tish o'rinli.

Ayniqsa, Muhtaram Prezidentimizning viloyatimiz uchun alohida qabul qilgan "2013-2016 yillarda Qashqadaryo viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi 2017-sonli qaroriga asosan (qiymati 2,097 mlrd dollarlik 555 ta loyihalardan (13305 ta ish o'rni) 2013 yil va 2014 yilning 6 oyligida qiymati 513,6 mln dollarlik 352 ta loyiha ishga tushirilib, 5746 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Xususan, hisobot davrida 116 ta loyihalar, shundan 33 ta loyihalar tasdiqlangan tarmoq jadvalidan oldin ishga tushirildi.

Viloyat sanoatidagi bunday ijobiy o'zgarishlarda imkoniyati, sharoiti, hatto iqlimi, xom ashyo zaxirasi inobatga olinib qabul qilinayotgan hududiy dasturlar asosiy omil bo'lib xizmat qilayotganini e'tirof etish darkor. Ayni paytda ijrosiga muhim e'tibor qaratilgan mamlakatimiz Prezidentining 2013 yil 2 avgustdagi "2013-2016 yillarda Qashqadaryo viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qarori haqida to'xtalmoqchimiz. Mazkur qaror bilan tasdiqlangan dastur doirasida viloyatda qiymati 2 mlrd 97 mln. dollarlik 555 ta loyihalarni amalga oshirish va 13305 ta yangi ish o'rinlari yaratish belgilangan.

Dasturga kiritilgan loyiha egalariga amaliy yordam berish maqsadida, hukumat tomonidan tarmoq vazirliklarining tajribali mutaxassislaridan iborat Ishchi guruhi viloyatga kelib tashabbuskorlari bilan yuzma-yuz uchrashib, ularning kredit olish, loyiha smeta xujjatlarini tayyorlash va boshqa masalalarni hal etishga amaliy yordam berishmoqda.

2014 yil yakunlariga ko'ra viloyat umumiy tashqi savdo aylanmasi 524,6 mln.dollarni tashkil etib, 2013 yilga nisbatan 71,5 foizni tashkil etdi (2013 yilda 733,9 mln. doll).

2014 yilda 73 ta korxonalar tomonidan 257,8 mln.dollarlik eksport amalga oshirilib, o'tgan yilga nisbatan 83,6 foizni tashkil etdi (2013 yilda 71 ta korxonalar tomonidan 308,4 mln. doll. eksport amalga oshirilgan).

Import hajmi 267,0 mln.dollarni tashkil etib, 2013 yilga nisbatan 62,7 foizni tashkil etdi (2013 yilda 425,5 mln. doll).

Viloyat eksportining asosiy qismini paxta tolasi 46,0 foizni, energetika mahsulotlari 12,0 foizni va kimyo mahsulotlari 21,0 foizni tashkil etib, qolgan sohalarda xizmatlar (12,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari (5,0 %), boshqalar (4,0 %)ni tashkil etdi.

Eksport tarkibida ayrim sohalarda o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atining kamayishini kuzatish mumkin. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

Viloyat importining esa asosiy qismini mashina va uskunalalar 78,0 foizni tashkil etdi.

Qolgan sohalar kimyo mahsulotlari 12,0 foizni, qora va rangli metallar 2,0 foizni, oziq - ovqat mahsulotlari 1,0 foizni, xizmatlar 2,0 foizni va boshqalar 5,0 foizni tashkil etdi.

Joriy davr mobaynida dunyoning 100 dan ortiq davlatlari bilan viloyat korxonalari o'rtasida tashqi savdo faoliyati amalga oshirildi.

Viloyat hududiy korxonalariga 2014 yil uchun 36,0 mln. dollar miqdorida eksport prognozi belgilangan bo'lib, amalda 38,5 mln. dollar miqdorida mahsulotlar eksport qilindi va belgilangan prognoz ko'rsatkich 106,9 foizga bajarildi.

Ushbu ko'rsatkichlar qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari, tekstil mahsulotlari, qurilish materiallari, kimyoviy o'g'it, charm mahsulotlari va xar-xil xizmatlar xisobiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari tayyor mahsulotlarning yangi turlarini eksport qilishni kengaytirish bo'yicha ko'rilgan choralar natijasida 4 ta yangi turdagi mahsulot eksport qilindi.

Xususan, eksport qiluvchi korxonalar soni, eksport hajmi va mahsulotlar turlarini ko'paytirish hamda eksport geografiyasini kengaytirish hisobiga amalga oshirildi. Misol uchun, ushbu jarayonda hududiy tasarrufdagi eksportyor korxonalar tomonidan eksport geografiyasi 3 ta davlatga, xususan Latviya, Janubiy Koreya va Hindistonga ko'paygan bo'lib, qo'shimcha 7 xil (Dehqonobod tumanidagi "Nargis Sarvar" xususiy tadbirkor tomonidan Hindiston davlatiga farmatsevtik tabiiy shillak xom-ashyosi, Koson tumanidagi "Ne'mat bobo RA" korxonasi va "Oltin voha agroinvest" MCHJ tomonidan Latviya davlatiga poliz mahsuloti (qovun), "Koson Don qabul qilish" OAJ tomonidan polietilen qoplar, "Qamashi Don" OAJ tomonidan ham polietilen qoplar, Qarshi shahridan xususiy tadbirkor Karimova Xafiza Ivanjanovna tomonidan yuk avtomobil qismlari (tyagach) va xususiy tadbirkor Qoraev Zafar Zokirovich tomonidan kompyuter ehtiyot qismlari) turdagi mahsulotlar tashqi bozorga yetkazib berilgan.

Xullas, Qashqadaryo viloyatida 2013-2014-yillar mobaynida sanoat salohiyatini o'sishini ta'minlovchi amaldagi strategiya davom ettirilmoqda, buning uchun mavjud zaxira va imkoniyatlardan unumli foydalanilmoqda.

I.2.Qashqadaryoda yengil sanoat sohasida modernizatsiya ishlarining amalga oshirilishi

Qashqadaryoda yengil sanoat sohasida modernizatsiya ishlari 2013-2014-yillarda ham ijobiy amalga oshirildi.

Viloyatda Yengil sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 392 tani (93 tasi to'qimachilik, 13 tasi trikotaj mahsulotlari, 276 tasi tikuvchilik, 7 tasi ipakchilik mahsulotlari va 3 tasi paypoq mahsulotlari) tashkil etadi.

Ushbu korxonalarda 2014 yilning 1 yanvar holatida yillik ishlab chiqarish quvvatlari kalava ip bo'yicha 11,2 ming tonnani, ip gazlama ishlab chiqarish bo'yicha 2,9 mln.kv.metrni, trikotaj mato bo'yicha 2,9 ming tonnani, tikuvchilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish 4,0 mln.donani, paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha esa 1,1 mln. juftni tashkil etadi.

Yengil sanoat korxonalarini tomonidan 2013 yilda ishlab chiqarish hajmi 2012 yilga nisbatan 10,7 foizga o'sdi.

Bu asosan Tayyor kiyim kechaklar ishlab chiqarish 114,2 foizga, kalava ip ishlab chiqarish hajmi 111,7 foizga oshishi hisobidan ta'minlandi.

Oziq-ovqat sanoatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2012 yilning shu davriga nisbatan 20,5 foizga o'sdi.

Jumladan, tozalangan o'simlik moyi ishlab chiqarish hajmi 1,4 martaga, qayta ishlangan sut mahsulotlari 101 foizga, Pishloq va yog'li brinzalar ishlab chiqarish 108 foizga, sariyog' ishlab chiqarish 104,3 foizga, makaron ishlab chiqarish hajmi 105,4 foizga o'sishi hisobidan ta'minlandi.

2013 yilda 7 ta 1330 tonna meva-sabzavotni qayta ishlash korxonasi tashkil etildi, natijada ularning soni 2014 yil 1 yanvar holatida 26 taga yetdi .

Ushbu korxonalar tomonidan 2013 yilda yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlarining 23,5 foizi qayta ishlanib, o'tgan yilga nisbatan 0,8 bandga o'sishga erishildi.

Sut va gushtni qayta ishlash bo'yicha 2013 yil 1 yanvar holatida 83 ta korxonalar mavjud bo'lib, 13 ta 1115 tonna sutni qayta ishlovchi va 6 ta 360 tonna go'shtni qayta ishlovchi korxonalar tashkil etildi, natijada sut va go'shtni qayta ishlovchi korxonalar soni 102 taga yetdi.

Bundan tashqari, 2013 yilda 6 ta sut va sut mahsulotlarini qayta ishlovchi, 1 ta go'sht va go'sht mahsulotlarini qayta ishlovchi 1 ta meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda modernizatsiya ishlari amalga oshirildi.

Aholining qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari ta'minotini yanada yaxshilash maqsadida meva-sabzavot, go'sht mahsulotlarini qayta ishlash, non va non mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilmoqda.

Kitob tumanidagi "SHahrisabz mevalari" MCHJ, "East agro international" MCHJlarda mevani qayta ishlash loyihalari amalga oshirildi.

Viloyatda yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlarining 23 foizi qayta ishlandi va o'tgan yilga nisbatan 1,9 bandga o'sishga erishildi.

Dastur asosida sut va go'sht mahsulotlarini qayta ishlash loyihalarini amalga oshirilishi natijasida bu yo'nalishdagi korxonalar ko'payib, sutni qayta ishlovchi korxonalar va go'shtni qayta ishlash korxonalar soni ko'paymoqda.

Bundan tashqari sut va sut mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda modernizatsiya ishlari amalga oshirildi.

Jumladan, Koson tumanidagi "Koson yog'-ekstraktsiya" OXJda yiliga 150 tonna sut va sut mahsulotlari, Yakkabog' tumanidagi Oqtosh kelajagi" MCHJda 160 tonna go'shtni qayta ishlash, "Kumush kuz fayzi" MCHJda 150 tonna kolbasa ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi.

Natijada, joriy yilning o'tgan davrida ishlab chiqarilgan go'sht mahsulotining 12,4 foizi, sutning 11,4 foizi qayta ishlandi va o'tgan yilga nisbatan 0,8 foiz o'sishga erishildi.

yengil sanoat va nooziq-ovqat soxasida 35 ta loyiha amalga oshirildi, jumladan Koson tumanidagi “Bunyodkor” MCHJ, “Yakkabog’ Xumo teks” MCHJda yiliga 300 tonna kalava ip ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi.

Viloyatdagi yengil sanoat korxonalarini rivojlantirish orqali eksportbop zamonaviy tayyor gazlama va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha umumiy qiymati 100 million dollardan iborat bo‘lgan 82 ta loyihani amalga oshirish belgilangan. Bu esa 2016 yilga borib, viloyatda yetishtiriladigan paxta tolasini qayta ishlash hajmini hozirgi 6 foizdan 35 foizga yetkazish va eng muhimi, 4 mingta yangi ish o‘rni yaratish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda barcha joylarda bo‘lgani kabi viloyatimizda ham infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Markazni chekka hududlar bilan bog‘lovchi aloqa yo‘llari zamon talablari dajarasiga keltirilmoqda. Qilingan ishlar samarasi o‘laroq, bugun viloyatimizning investitsiyaviy jozibadorligi oshayapti. Natijada xorijiy investorlar nafaqat viloyat yoki tuman markazlarida, balki qishloqlardagi ishlab chiqarish sub'ektlari bilan ham sheriklik munosabatlarini o‘rnatishga qiziqio‘ bildirmoqda.

2013 yili hududga kiritilgan markazlashmagan va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 276 milliard 296 million so‘mni tashkil qiladi. Ularning asosiy qismi aloqa va kommunikatsiya, sog‘liqni saqlash, neft-gaz sohalari hamda qo‘shma korxonalar (12 milliard 717 million so‘m)ga yo‘naltirilgan.

2013 yil 1 iyul holatiga ko‘ra viloyatimiz bo‘yicha jami xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi 60 ta xo‘jalik sub'ekti ro‘yxatdan o‘tgan, mavjud korxonalarining 46 tasi faoliyat ko‘rsatmoqda. 2013 yilda mazkur korxonalar tomonidan 1 trillion 348 milliard 703 million so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan.

Ushbu korxonalar hozirgi kunda turli iste'mol tovarlari, yengil sanoat mahsulotlari, qurilish materiallari (asfalt, beton, polimer, mikrokalzit, bo‘yoq), mashinasozlik (moy sovutish radiatorlari ishlab chiqarish, "Avtotraktor Radiator" O‘zbekiston-Rossiya qo‘shma korxonasi), xizmat ko‘rsatish (avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish va yuk tashish, "SERGORUS-UZ" O‘zbekiston-Litva qo‘shma korxonasi), qishloq xo‘jaligi hamda neft-gaz tarmoqlarida ishlamoqda.

Shuningdek, xorijiy hamkor davlatlar soni 23 tani tashkil etadi. Ular orasida AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Misr, Rossiya, Singapur, Xitoy, Shveysariya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar bor.

2014 yilda xorijiy sarmoya ishtirokidagi tadbirkorlik sub'ektlari soni yana 2 taga ko'paydi. Qarshi shahrida polimer quvurlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Saturn Plast" O'zbekiston-Xitoy va elektr o'lchov uskunalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Ekspress avtomatika" O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonalari ta'sis etildi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda qulay investitsiyaviy muhit shakllantirildi, xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qonun yo'li bilan keng ko'lamdagi imtiyozlar, afzalliklar va kafolatlar tizimi yaratildi.

- Prezidentimizning 2005 yil 11 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga asosan xorijiy investorlarga muayyan qulayliklar yaratildi. Xususan, 2005 yilning 1 iyulidan boshlab to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan va 20 turdagi (2012 yil II chorakdan boshlab) iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonalar yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq, mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va obodonlashtirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, shuningdek Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod qilingan.

Yaratilgan imkoniyatlar natijasida viloyatimizda yildan-yilga xorijiy investorlar bilan hamkorlik aloqalari kengayib bormoqda, ular tomonidan kiritilayotgan sarmoyalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qilayotir. Bunday istiqbolli loyihalar yuzlab yangi ish o'rinlari yaratish, import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish imkonini beradi.

"Guzor Yi Jie" 2013 yili xitoylik ishbilarmon tomonidan kiritilgan 283 ming AQSh dollari miqdoridagi investitsiya hisobiga barpo etildi. Bu yerda o'rnatilgan

zamonaviy texnologiyalar har oyda 4 million dona pishiq g'isht ishlab chiqarish quvvatiga ega. 40 nafarga yaqin kishi ish bilan ta'minlandi.

Ma'lumotlarga qaraganda, respublikamizda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va sohalarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida 4 mingdan ortiq korxonalar tashkil qilingan va muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Har yili 3 milliard AQSh dollaridan ko'proq, asosan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilmoqda, bu mamlakat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiya umumiy hajmining 26 foizdan ko'prog'ini tashkil qiladi. Bu esa xorijiy investorlarning mamlakatimiz iqtisodiyoti barqarorligi va pishiq-puxtaligiga, uni rivojlantirish istiqbollari qiziqishi hamda ishonchi ortib borayotganligidan yaqqol dalolat beradi.

Yengil sanoat sohasida 783,3 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, ishlab chiqarish hajmi 2013 yilning shu davriga 112 foizga o'sdi.

Bu asosan Tayyor kiyim kechaklar ishlab chiqarish 2094 mln so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 2,5 martaga, Kalava ishlab chiqarish xajmi 5033 tonnani tashkil etib o'tgan yilga nisbatan 103,9 foizga, Trikotaj buyumlari ishlab chiqarish xajmi 1301 ming donani tashkil etib o'tgan yilga nisbatan 103,9 foizga oshishi hisobidan ta'minlandi.

Oziq-ovqat sanoati sohasida. Ushbu korxonalar tomonidan joriy yilda 561,7 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 2013 yilning shu davriga nisbatan 99,4 foizni tashkil kildi.

Bu kamayish ushbu soxaga tegishli 2 ta sanoat korxonasida ("Karshi yog ekstraktsiya" Xjda 2,4 mlrd sum va "Koson yog ekstraktsiya" XJda 2,0 mlrd sum) ishlab chiqarish xajmi mahsulot ishlab chiqarish uchun xom-ashyoning yetishmasligi sababli 4,4 mlrd sumga kamaytirganligidan kelib chiqdi.

Shunday qilib, Qashqadaryo viloyati yengil sanoati tarmoqlarini tarkibiy o'zgartirish, diversifikatsiya qilish va yangilash jarayonlari natijasida samarali ishlar davom ettirilmoqda.

I.3. Qashqadaryo sanoatini rivojlantirishda kichik beznis va xususiy tadbirkorlikning o'рни

Qashqadaryo sanoatini rivojlantirishda kichik beznis va xususiy tadbirkorlikning o'рни muhim xisoblanadi. Shuning uchun ham 2013-2014-yillar davrida Qashqadaryo viloyati sanoat tarmoqlarini yanada takomillashtirish jarayoniga muvofiq kichik beznis va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga alohida o'rin ajratildi.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga 2013 yilda 373 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratilgan bo'lsa, 2014 yilda 499,7 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 134 foizni tashkil etdi.

Ushbu kreditlarning 166,3 mlrd.so'mi kichik korxonalar va mikrofirmalarga, 253,1 mlrd.so'mi xususiy tadbirkorlarga, 80,3 mlrd.so'mni dehqon va fermer xo'jaliklariga berildi.

Viloyatda bank kassalariga naqd pul tushumini ko'paytirish maqsadida sanoat tovarlari va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqaruvchi yirik korxonalarining firma do'konlarini ochish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2010 yil 19 apreldagi PQ-1325-sonli, 2009 yil 6 apreldagi PQ-1090-sonli va 2006 yil 3 avgustdagi PQ-433-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 sentyabrdagi 445-sonli Qarorlari ijrosini ta'minlash yuzasidan viloyat bo'yicha emissiya qilingan plastik kartochkalar asosida naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini kengaytirish maqsadida 2014 yilda 1176336 dona plastik kartochkalar muomalaga chiqarilgan bo'lib, yil boshiga nisbatan 180087 donaga yoki 118,0 foizga oshdi.

Davlat daromadlariga 2214,4 mlrd.so'm mablag' jalb qilish rejalashtirilgan bo'lib, haqiqatda 2203,4 mlrd.so'mni tashkil etdi yoki ko'rsatkich 100,5 foizga bajarildi hamda soliq va majburiy to'lovlar 26702,7 mln.so'mga ko'p jalb qilindi. Bu ko'rsatkich viloyatning shaxar va tumanlarida to'liq bajarildi.

2014 yilda viloyat mahalliy byudjet harajatlari 1538,3 mlrd.so'mga rejalashtirilgan bo'lib, haqiqatda dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 1542,7 mlrd.so'mga yoki 100,3 foizga ijro etildi.

2014 yilda ijtimoiy-madaniy tadbirlarga 1184,1 mlrd.so'm, ijtimoiy himoyaga 147,1 mlrd.so'm, kapital qo'yilmalar harajatlariga 43,2 mlrd.so'm va boshqa harajatlarga 168,3 mlrd.so'm mablag' yo'naltirildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida qabul qilingan qarorlarning amaliyotga keng tadbiriq etilishi, tekshirish ishlarining qisqarganligi, biznes yuritish uchun moliya va vaqt harajatlarining kamayganligi, ro'yxatga olishning xabardor qilish tizimining joriy etilishi natijasida ro'yxatga olingan va faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'ektlari soni jadal oshib, ularning iqtisodiy ko'rsatkichlarida ham ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda.

2013 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha viloyatda 1652 ta kichik biznes korxonalarini tashkil etilib, ularning soni 20430 taga yetdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida viloyatdagi tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga 2013 yil davomida 372,9 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 86,3 mlrd. so'mga ko'p yoki 130,1 foizni tashkil etdi.

Ajratilgan kreditlarning 17,4 foizi sanoatga, 24,9 foizi qishloq xo'jaligiga, 14,9 foizi qurilishga, 15,9 foizi maishiy xizmat ko'rsatishga va 26,9 foizi boshqa sohalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Natijada qo'shimcha ravishda 19 mingdan ortiq ish o'rinlari tashkil etildi.

Kichik biznes sub'ektlarning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 2000 yildagi 25,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda 51,4 foiz darajasiga yetdi. Shuningdek, ularning iqtisodiyotning barcha asosiy tarmoqlaridagi ulushi oshib bormoqda.

2014 yil 6 oyda viloyatida 20366 dan ziyod kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini ro'yxatdan o'tib, (fermer xo'jaliklarisiz) hozirgi kunda ro'yxatdan o'tgan sub'ektlarning 15157 tasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyotimizning hal qiluvchi tarmoqlaridan biriga aylanib borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi viloyatda izchil rivojlanmoqda. Yalpi hududiy mahsulot tarkibida bu sohaning ulushi 52,4 foizni tashkil etadi, ish bilan band aholining 77 foizdan ziyodi ushbu sektorda mehnat qiladi,

aholi daromadlarining yarmidan ko'pi mazkur tarmoq hisobidan shakllanayapti.

Ana shunday muhim natijalarni e'tirof etgan holda, bu sohada ayrim muammolar bor. Masalan, viloyatda ro'yxatga olingan 47 ming 400 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektidan 3 ming 450 ga yaqini amalda faoliyat ko'rsatmayapti.

Kichik biznes sub'ektlari o'z ishini tashkil etishi uchun ularga binolar, yer uchastkalari ajratish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish masalalarida turli-to'siqlar uchrab turibdi.

Turli nazorat idoralari tomonidan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga noqonuniy aralashish holatlari ko'zga tashlanmoqda. 2013 yilning birinchi yarmida nazorat organlari tomonidan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati yuzasidan 14 ta noqonuniy tekshirish o'tkazilgan. Shuningdek, bir qator tumanlardagi tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatga olish inspeksiyalari faoliyatida tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini buzish holatlari qayd etilgan.

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida 2 million 830 ming aholi yashamoqda. Ularning 17,5 foizini maktab yoshidagi bolalar, 27 foizdan ortig'ini yoshlar, qariyb 50 foizini esa ayollar tashkil etadi. Keyingi 10 yilda viloyat aholisining soni 1,2 barobar o'sdi.

Hayot o'zgarishlari bilan birga insonlarning talab va ehtiyojlari, orzu-niyatlari, kerak bo'lsa, tashvish-muammolari ham o'sib boradi.

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, viloyatda aholining real daromadlari 2000 yilga nisbatan jon boshiga 9,7 barobar ko'paygan, shu davrda o'rtacha oylik ish haqi 23 marta, pensiya va ijtimoiy nafaqalar 12,7 marta ortgan.

Oxirgi o'n ikki yilda viloyatda 320 ta umumta'lim maktabi, 89 ta akademik litsey va kasb-hunar kolleji, 132 ta sog'liqni saqlash muassasasi, 98 ta bolalar sporti ob'ekti foydalanishga topshirilgan.

Bu nafaqat shahar va qishloqlar qiyofasini, balki odamlarimizning dunyoqarashi, hayotga munosabatini tubdan o'zgartirishga xizmat qilmoqda, ularning ertangi kunga ishonchini kuchaytirmoqda.

Ayni paytda viloyatda ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish uchun byudjetdan ajratilgan mablag'larni o'zlashtirishda ba'zan oqsoqlik holatlariga yo'l qo'yilayapti. Masalan, 2013 yili 2 ta kasb-hunar kolleji, 11 ta maktab belgilangan muddatda foydalanishga topshirilmagan.

Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida zamonaviy uy-joylar qurish dasturi doirasida Qashqadaryo viloyatida keyingi to'rt yilda 2 ming 510 ta yangi, shinam uy-joy va infratuzilma ob'ektlari barpo etildi.

«Obod turmush yili» deb nom olgan 2013 yilda esa yana 1 ming 50 ta uy-joy, 32 kilometr ichimlik suvi, 28 kilometrdan ziyod elektr tarmoqlari, 40 kilometrdan ortiq tabiiy gaz tarmoqlari va 24 kilometrdan ziyod yo'l qurish bo'yicha keng ko'lamlilik ishlar olib borildi. Lekin, afsus bilan aytish kerakki, ayrim tumanlarda pudrat tashkilotlarini safarbar etish, tegishli moddiy-texnik resurslar bilan uzluksiz ta'minlash, muhandislik kommunikatsiyalarini oldindan barpo etish ishlari talab darajasida tashkil etilmagan.

Sanoat sohasining yangi turlarini rivojlantirish maqsadida kelgusi to'rt yilda umumiy qiymati – 2 milliard 98 million dollarga teng bo'lgan 555 ta loyihani amalga oshirish, eng muhimi, 13 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratish ko'zda tutilyapti.

Ushbu loyihalarni amalga oshirish natijasida viloyatda sanoat mahsulotlari hajmi 1,2 barobar, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari 1,6 barobar, qurilish materiallari 1,8 marta, mashinasozlik va kimyo sanoati 2,9 karra, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi esa 1,7 barobar ortishi rejalashtirilgan.

Dasturda, jumladan, viloyatdagi yengil sanoat korxonalarini rivojlantirish orqali eksportbop zamonaviy tayyor gazlama va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha umumiy qiymati 100 million dollardan iborat bo'lgan 82 ta loyihani amalga oshirish belgilangan. Bu esa 2016 yilga borib, viloyatda yetishtiriladigan paxta tolasini qayta ishlash hajmini hozirgi 6 foizdan 35 foizga yetkazish va eng muhimi, 4 mingta yangi ish o'rni yaratish imkonini beradi.

Xullas, Qashqadaryo viloyatida kichik beznis va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yanada rag'batlantirish asnosida joylarda

ishbilarmonlik muhiti tubdan yaxshilanmoqda, viloyatdagi sanoat korxonalarining imkoniyatlarini o'rishiga munosib ulush qo'shishmoqda.

II BOB.QASHQADARYO VILOYATIDA SANOAT SALOHIYATINI RIVOJLANISHINI YANADA TAKOMILLASHTIRILISHI.

II.1.Qashqadaryoda yirik investisiya loyihasining amalga oshirilishi.

Mazkur 2013-2014-yillarda ham Qashqadaryoda yirik investisiya loyihasi amalga oshirilishi 2014 yil yanvar-dekabr oylarida moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan 3944,4 mlrd so'mlik investitsiya o'zlashtirildi (2013 yilda 3352,9 mlrd.so'm) bu o'tgan yilga nisbatan 105,6 foizga bajarildi.

O'zlashtirilgan kapital mablag'larning 1314,2 mlrd.so'm markazlashgan va 2630,3 mlrd so'mi markazlashmagan investitsiyalar xissasiga to'g'ri keldi. Viloyatda ishlab chiqarish inshootlariga 3129,6 mlrd so'm, noishlab chiqarish inshootlariga 814,8 mlrd so'm mablag' sarflandi.

O'zlashtirilgan mablag'larning 103,8 mlrd.so'mi byudjet mablag'lari xissasiga to'g'ri kelib o'tgan yilga nisbatan 179,9 (2013 yil 57,7 mlrd so'm), byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari 722,0 mlrd so'm o'tgan yilga nisbatan 132,7 foizga (2013 y 544,2 mlrd so'm), korxonalarni o'z mablag'lari 1498,2 mlrd so'mni tashkil etib o'tgan yilga nisbatan 117,4 foizga (2013 y 1276,6 mlrd so'm), tijorat banklarining kreditlari xisobidan 224,2 mlrd so'm o'zlashtirilib, bu o'tgan yilga nisbatan 272,0 foizni (2013 y 82,4 mlrd so'm) tashkil etdi.

Shu davr ichida 846,5 mlrd so'mlik chet el sarmoyalari jalb etildi, jalb etilgan chet el investitsiyasining 488,4 mlrd so'mi Davlat kafolati ostidagi chet el kreditlari bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 84,1 foizga (2013 y 560,8 mlrd so'm), to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar xajmi 358,2 mlrd so'mni tashkil etib o'tgan yilga nisbatan 1299,5 foizga (2013 yil 276,6 mlrd so'm) axoli mablag'lari 549,7 mlrd.so'mni tashkil etib o'tgan yilga nisbatan 99,1 foizni tashkil etdi (2013 yil 554,5 mlrd so'm).

Byudjet mablaglari hisobidan 2014 yil yakunida 76,4 mlrd.so'm o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan bo'lib xaqiqatda 103,8 mlrd.so'm mablag' o'zlashtirildi. Shundan, kommunal soha inshootlaridan 91,2 km suv tarmoqlari 13 ta nasos, 4 ta skvajen, 158 dona rezervuar, 14 dona VNB, 11 dona TP va 5ta nasos stantsiya foydalanishga topshirildi va 11,7 mlrd summ mablag' o'zlashtirildi.

Sugoriladigan yerlarning irrigatsiya xolatini yaxshilash uta muxim yirik suv xujalik inshootlari kurilishi va qishloq xujaligi uchun 17,9 mlrd.sum va boshqa soxalarga 62,8 mlrd sum mablag sarflandi. Maxalliy byudjet mablag'lari hisobidan 11,4 mlrd sum mablag' o'zlashtirildi.

Byudjetdan tashqari fond mablag'lari hisobidan 627,0 mlrd.so'm o'zlashtirilishi ko'zda tutilib, xaqikatda 722,0 mlrd so'm o'zlashtirildi, shundan,

Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi mablag'lari hisobidan 13,8 mlrd so'm mablag' o'zlashtirildi, respublika yo'l jamg'armasi mablag'i hisobidan halqaro va davlat ahamiyatidagi yo'llar qayta qurilishi va ta'mirlanishi uchun 145,5 mlrd so'm mablag' sarflandi, respublika bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'i hisobidan 22,7 mlrd. so'm mablag' sarflandi, jumladan; Qarshi shahridagi Viloyat yoshlar va o'smirlar sport maktabi qoshidagi badiiy gimnastika zali va Qarshi tumanidagi 1-sonli BO'SMni yangi qurilishiga, Koson tumanidagi 3-sonli BO'SMni rekonstruktsiya qilishga, Qamashi tumanidagi 3-sonli maktabga 12x24 o'lchamli, Kitob tumanidagi 59-sonli maktabga 12x24 o'lchamli, G'uzor tumanidagi 7-sonli maktabga 12x24 o'lchamli, Dehqonobod tumanidagi 6-sonli maktabga 12x24 o'lchamli, Mirishkor tumanidagi 19-sonli maktabga 12x24 o'lchamli, Yakkabog' tumanidagi 14-sonli maktabga 12x24 o'lchamli, Qarshi tumanidagi 59-sonli maktabga 12x24 o'lchamli, Shahrisabz tumanidagi 50-sonli maktabga 12x24 o'lchamli va Qarshi shahridagi 44-sonli maktabga 12x24 o'lchamli sport zallari qurilishi va Shahrisabz tumanidagi 2-sonli 200 o'rinli va 16-sonli 200 o'rinli, Qamashi tumanida 6-sonli 150 o'rinli musiqa va san'at maktablarini yangidan qurishga va Nishon tumanidagi 13-sonli 150 o'rinli musiqa va san'at maktabini kapital rekonstruktsiya qilinib foydalanishga topshirildi.

umumta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini jixozlash, kapital ta'mirlash va rekonstruktsiya qilish jamg'armasi mablag'lari xisobidan 57,1 mlrd so'm mablag' sarflandi, jumladan;

Kitob tumanidagi "Iqtisod" KH Kolleji uchun 100 o'rinli yotokxona, Qamashi tumanidagi " Agrobiznges" yunalishidagi KHK uchun 50 o'rinli

yotoqxona, Shahrisabz tumanidagi "Iqtisod" yo'nalishidagi KHK uchun 75 o'rinli yotoqhona, Shaxrisabz tumanidagi "ozik ovkat, sanoat va servis" yunalishidagi KHK uchun 18x30 sportzal va 30 o'rinli o'quv bloki, Nishon tumanidagi " qishlok xujalik" yunalishidagi KHK uchun 120 o'rinli o'kuv bloki va 75 o'rinli yotoqxona va 36 ta 9216 o'quvchi o'rinli maktab rekonstruktsiya qilinib foydalanishga topshirildi va sog'liqni saqlash inshootlaridan Qarshi shahridagi 435 o'rinli Viloyat ko'p tarmoqli bolalar shifoxonasi, Qarshi shahridagi 30 o'rinli va 100 qatnovga mo'ljallangan Viloyat onkologiya dispanseri, 150 qatnovga mo'ljallangan Qarshi tumani tibbiyot birlashmasi, 50 o'rin va 150 qatnovga mo'ljallangan G'uzor tuman tibbiyot birlashmasi, 35 o'rinli Mirishkor tuman tibbiyot birlashmasi, 150 qatnovli Yakkabog' tuman tibbiyot birlashmalarini rekonstruktsiya qilib foydalanishga topshirildi.

Oliy ta'lim muasasalarini moddiy texnik bazasini rivojlantirish jamgarmasi mablagi xisobidan 3,6 mlrd so'm mablag o'zlashtirildi.

Taraqqiyot va tiklanish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 479,2 mlrd so'm mablag' o'zlashtirildi, bular; "Dehqonobod kaliyli ug'itlar" zavodida kaliyli ug'itlar ishlab chiqarish quvvatini oshirish (2-navbati) loyixasi uchun 66,6 mlrd so'm, Tallimarjon IESni kengaytirish xisobiga 450 MVt quvvatli ikki bug'gazli qurilmasi qurilishiga 159,6 mlrd sum, Janubiy Kemachi tug'ilish joyi qurilishiga 30,1 mlrd sum, DKS Alan tug'ilish joyini kurib bitkazish 112,5 mlrd sum, Shurtan DKS-2 konini xududlari qurilishiga 110,4 mlrd sum mablag' o'zlashtirildi, davlat kafolati ostidagi chet kreditlari xisobidan yanvar-dekabr oylarida 475,2 mlrd sum mablag' o'zlashtirilishi rejalashtirilib, xaqiqatda 488,4 mlrd sum mablag' o'zlashtirildi, bular; 450 MVt quvvatli ikki bug'gazli qurilmasi qurilishi Talimorjon TES ni kengaytirish loyixasiga 244,4 mlrd sum, "ASIA TRANS GAS" O'zbekiston-Xitoy QK gazoprovod qurilishi loyixasiga 132,7 mlrd sum mablag', Marakand-Qarshi temir yo'l uchastkasini elektrofikatsiya ishlariga 65 mlrd sum, 4R87 "G'uzor-Chim-Kukdala" avtomobil yo'llarini rekonstruktsiya qilish ishlariga 30,3 mlrd sum, qishloq xujalik tashkilotlarini tarkibiy qayta tuzish ishlariga 7,5

mlrd.so'm, Sog'likni saqlash sohasiga 4,4 mlrd so'm va halq ta'limi sohasiga 4,1 mlrd sum mablag' o'zlashtirildi.

Korxonalar mablagi xisobidan 1234,9 mlrd sum mablag' rejalashtirilib xaqiqatda, 1498,2 mlrd.so'm kapital mablag o'zlashtirildi bu asosan mavjud korxonalar kuvvatini oshirish va yangilash ishlariga yunaltirildi.

To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyasi va kreditlari xisobidan 224,1 mlrd sumlik mablag' o'zlashtirilishi rejalashtirilib, xaqiqatda 358,2 mlrd sum o'zlashtirildi.

"Yunitel" MCHJga 15,1 mlrd. so'm, IP MCHJ Lukoil 343,1 mlrd. so'm mablag' o'zlashtirildi.

Tijorat banklari kreditlari xisobidan 185,9 mlrd sum mablag' o'zlashtirilishi rejalashtirilib xaqiqatda 224,2 mlrd so'mga bajarildi.

Aholi mablag'i hisobidan 559,5 mlrd.so'm mablag' o'zlashtirilishi rejalashtirilib xaqiqatda 549,7 mlrd sum mablag' o'zlashtirildi. Yakka tartibdagi va namunaviy loyihalar asosidagi uy-joy qurilishi uchun 549,4 mlrd so'm mablag' sarflanib 925,9 ming kv metr uy-joylar, shundan 356,1 mlrd summ mablag' o'zlashtirilib 761,5 ming kv metr yakka tartibdagi uy-joylar va 193,3 mlrd sum mablag' sarflanib 164,5 ming kv metr namunaviy uy-joylar foydalanishga topshirildi.

Viloyatda yil yakunida 1298,9 mlrd sum 108,7 foiz qurilish pudrat ishlari xajmi rejalashtirilib xaqiqatda 1619,8 mlrd so'm qurilish pudrat ishlari bajarildi va o'tgan yilga nisbatan (o'tgan yilga 1169 mlrd sum) 120,1 % ga foizga bajarildi.

Mustaqillikning davlat va xususiy shakllari rivojlanishi natijasida sanoatda ham chuqur tuzilmaviy o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu esa asta-sekin sanoatning barcha tarmoqlarida jonlanishga olib kelmoqda.

Ta'kidlash kerakki, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va bu sohalarni diversifikatsiya qilishga qaratilayotgan ulkan e'tibor eksport hajmi, uning tarkibi va sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2012 yilda mahsulotlar eksporti hajmi 2010 yilga nisbatan qariyb 30 foizga ko'paydi va 2010-2013 yillar mobaynida eksportning o'rtacha xajmi 362,8 million dollardan ko'proqni tashkil etdi. Bu 2000 yilga nisbatan 5,0 barobar ziyoddir. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosini 2010-2013 yillar davomida 101,6 million dollardan oshdi. Eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi 80 foizni tashkil etdi, holbuki, 2000 yilda bu ko'rsatkich qariyb 40 foizni tashkil etgan edi.

O'tgan davrlarda eksport tuzilmasining tarkibi ham ancha o'zgardi. Bugungi kunda eksportda kimyoviy mahsulotlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari asosiy o'rin tutmoqda. Viloyat tashqi savdo geografiyasi Osiyo va Sharqiy Osiyo qit'asi bozorlari bilan savdo aylanmasining o'sishi hisobiga o'zgarib bormoqda. Hisobot yiliga qadar mahsulotlar eksportining asosiy qismi Yevropa va Amerika davlatlari (CHexiya, Kipr, Ukraina, Frantsiya, Rossiya, Latviya, Turkiya, Ozarbayjon, Gollandiya, Isroil, AQSH, Kanada kabi)ga to'g'ri kelgan bo'lsa, hisobot yilida Osiyo va Sharqiy Osiyo davlatlari (Xitoy, Eron, Koreya, Gong-Kong, Tayvan, Yaponiya, Singapur, Bangladesh, Pokiston, Afg'oniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston kabi) bilan tashqi savdo aloqalari o'rnatilib, 5 ta yangi yangi Iordaniya, Serbiya, Yamayka va Britaniya hamdo'stligiga qarashli Angelya, Qoratog' (CHernogoriya) davlatlariga mahsulotlar va xizmatlar eksporti (Ma'lumot uchun, Iordaniya davlatiga turizm, Serbiya, Yamayka va Britaniya xamdustligiga qarashli Angelya davlatlariga moliyaviy va bank xizmatlari) amalga oshirildi.

Kimyoviy mahsulotlar eksporti 27,0 barobar, energetika mahsulotlari eksporti 9,0 barobar, xizmatlar eksporti 13,0 barobar ortgan.

2013 yilda dunyoning 216 ta davlatlari bilan viloyat korxonalarini o'rtasida tashqi savdo faoliyati amalga oshirildi.

SHuningdek joriy yilda 5 ta yangi Iordaniya, Serbiya, Yamayka va Britaniya hamdo'stligiga qarashli Angelya, Qoratog' (CHernogoriya) davlatlariga mahsulotlar va xizmatlar eksporti (Ma'lumot uchun, Iordaniya davlatiga turizm, Serbiya, Yamayka va Britaniya xamdustligiga qarashli Angelya davlatlariga moliyaviy va bank xizmatlari) amalga oshirildi.

2014 yil 1 iyul holatiga viloyat bo'yicha xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi xo'jalik sub'ektlarining 46 tasi faoliyat yuritmoqda.

Mazkur xo'jalik sub'ektlari hozirgi kunda yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, turli xildagi beton asfalt, polimer, mikrokaltsid, bo'yoqlar ishlab chiqarish, vino mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash ("AGROMIR KITAB" O'zbekiston-Britaniya qo'shma korxonasi), moy sovutish radiatorlari ishlab chiqarish ("Avtotraktor Radiator" O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi), avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va yuk tashish xizmatini ko'rsatish («SERGORUS-UZ» O'zbekiston-Litva qo'shma korxonasi) hamda neftgaz tarmoqlarida va boshqa sohalarda faoliyat olib borishmoqda.

Joriy yil davomida 2 ta Qarshi shahrida polimer quvurlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan "Saturn Plast" O'zbekiston-Xitoy va elektr o'lchov uskunalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Ekspress avtomatika" O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonalarini tashkil etilib

2014 yilgi xududiy investitsiya doirasida jami 45 ta loyihaga 52,6 mln. dollarlik investitsiyalar jalb etilishi ko'zda tutilgan bo'lib, amalda 55,8 mln.dollar miqdorida investitsiyalar jalb etilib, belgilangan prognoz ko'rsatkich 106,0 foizga ijrosi ta'minlandi.

Jalb etilgan investitsiyalarning 13,5 mln.dollari tadbirkorlarning o'z mablag'lari hisobiga, 35,2 mln.dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga, 7,2 mln.dollari tijorat banklarining kreditlari hisobidan amalga oshirildi. Buning natijasida 21,8 mlrd.so'mdan ortiq mahsulotlar ishlab chiqarildi va 5,5 mln.dollardan ortiq eksport amalga oshirilib, 605 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Qo'shma korxonalarining faoliyati. 2015 yil 1 yanvar holatiga viloyatda jami 55 ta qo'shma korxonalar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan 44 tasi faoliyat yuritmoqda. (tezkor)

O'tgan davrda ushbu qo'shma korxonalar tomonidan 107,5 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2013 yilga (106,7 mlrd.so'm) nisbatan 15,0 mlrd.so'mga ko'p (100,7 %) mahsulot ishlab chiqarildi.

SHuningdek, qo'shma korxonalarining sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 9,9 foizni, mahsulot eksportidagi ulushi esa 22,2 foizni tashkil etadi.

SHuningdek, o'tgan davrda ushbu sohada olib borilgan ishlar natijasida viloyatda o'tgan davr mobaynida 3 ta qo'shma korxonalar tashkil etildi.

Bular, Nishon tumanida "Barakat orenburg" O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi, Qarshi shahrida MCHJ shaklidagi "Ekspress avtomatika" xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonasi va Qarshi shahrida MCHJ shaklidagi "Saturn plast" O'zbekiston-Xitoy korxonalaridir.

Viloyatni istiqbolini rivojlantirish maqsadida 2014 yildan boshlab chet ellik xamkorlar bilan birgalikda ishlab chiqarish ob'ektlari jumladan, Shurtangazkimyo majmuasida Malayziya davlatining "Petronas" va YuAR "Sasol" kompaniyalari bilan birgalikda metan tozalash bazasida sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" unitar shu'ba korxonasi qoshida Singapur davlatining "Indorama Group" kompaniyasi bilan birgalikda gaz kimyo majmuasi qurilishi rejalashtirilgan.

Viloyat iqtisodiyotining real sektoriga 2012 yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan qiymati 2824,4 mlrd.so'mdan ortiq kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, bu 2011 yilga nisbatan 26,6 foiz ko'p demakdir. Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2012 yilda 6,4 foizni, 2013 yilda 6,5 foizni tashkil etgani viloyatimizda investitsiya jarayonlarining jadal faollashib borayotganidan dalolat beradi.

Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari va ulardan foydalanish borasida ijobiy sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. 2012 yildagi jami investitsiyalarning 77 foizdan ortig'i viloyatimizning ichki manbalari hisobidan, 1163,6 mlrd.so'm korxonalar va 384,5 mlrd.so'm aholi mablag'lari, 138 mlrd.so'm investitsiya jarayonlarida tobora faol ishtirok etayotgan tijorat banklari kreditlari, shuningdek, 21,9 mlrd.so'm davlat byudjeti va 402,1 mlrd.so'm byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan shakllan-tirilmoqda.

Jami investitsiyalarning 80 foizidan ortig'i ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirilmoqda. Investitsiyalarning qariyb 20,3 foizi zamonaviy, yuksak samarali asbob-uskunalar xarid qilishga yo'naltirilgani ayniqsa muhimdir.

2013 yilda ham ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilashni jadallashtirishga yo'naltirilgan faol investitsiya siyosati amalga oshirildi.

2013 yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan 3352,9 mlrd so'mlik investitsiya o'zlashtirilib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,5 foizga bajarildi.

Ushbu o'zlashtirilgan kapital mablag'larning 1162,7 mlrd so'mi markazlashgan va 2190,1 mlrd so'mi markazlashmagan investitsiyalar hissasiga to'g'ri keldi. Viloyatda ishlab chiqarish inshootlariga 2646,4 mlrd so'm, noishlab chiqarish inshootlariga 706,5 mlrd so'm mablag' sarflandi.

Shu davr ichida 837,5 mlrd so'mlik chet el sarmoyalari jalb etildi, jalb etilgan chet el investitsiyasining 560,8 mlrd so'mi Davlat kafolati ostidagi chet el kreditlari bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 122,5 foizga, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar xajmi 276,6 mlrd so'mni tashkil etib o'tgan yilga nisbatan 105,7 foizga o'sdi.

Viloyatimizda faol investitsiya siyosati olib borilishi natijasida Davlat kafolati ostidagi chet el kreditlari xisobidan 450 MVt kuvvatli ikki bug'gazli qurilmasi qurilishi Talimorjon TES ni kengaytirish, "ASIA TRANS GAS" O'zbekiston-Xitoy QK gazoprovod qurilishi loyixasi, Marakand-Qarshi temir yo'l uchastkasini elektrofikatsiya ishlari amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda barcha joylarda bo'lgani kabi viloyatimizda ham infratuzilmani yaxshilash bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Markazni chekka hududlar bilan bog'lovchi aloqa yo'llari zamon talablari dajarasiga keltirilmoqda. Qilingan ishlar samarasi o'laroq, bugun viloyatimizning investitsiyaviy jozibadorligi oshayapti. Natijada xorijiy investorlar nafaqat viloyat yoki tuman markazlarida, balki qishloqlardagi ishlab chiqarish sub'ektlari bilan ham sheriklik munosabatlarini o'rnatishga qiziqio' bildirmoqda.

2013 yili hududga kiritilgan markazlashmagan va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 276 milliard 296 million so'mni tashkil qiladi. Ularning asosiy qismi aloqa va kommunikatsiya, sog'liqni saqlash, neft-gaz sohalari hamda qo'shma korxonalar (12 milliard 717 million so'm)ga yo'naltirilgan.

2013 yil 1 iyul holatiga ko'ra viloyatimiz bo'yicha jami xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi 60 ta xo'jalik sub'ekti ro'yxatdan o'tgan, mavjud korxonalarining 46 tasi faoliyat ko'rsatmoqda. 2013 yilda mazkur korxonalar tomonidan 1 trillion 348 milliard 703 million so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan.

Ushbu korxonalar hozirgi kunda turli iste'mol tovarlari, yengil sanoat mahsulotlari, qurilish materiallari (asfalt, beton, polimer, mikrokalsit, bo'yoq), mashinasozlik (moy sovutish radiatorlari ishlab chiqarish, "Avtotraktor Radiator" O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi), xizmat ko'rsatish (avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va yuk tashish, "SERGORUS-UZ" O'zbekiston-Litva qo'shma korxonasi), qishloq xo'jaligi hamda neft-gaz tarmoqlarida ishlamoqda. Shuningdek, xorijiy hamkor davlatlar soni 23 tani tashkil etadi. Ular orasida AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Misr, Rossiya, Singapur, Xitoy, Shveysariya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar bor.

2014 yilda xorijiy sarmoya ishtirokidagi tadbirkorlik sub'ektlari soni yana 2 taga ko'paydi. Qarshi shahrida polimer quvurlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Saturn Plast" O'zbekiston-Xitoy va elektr o'lchov uskunalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Ekspress avtomatika" O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonalari ta'sis etildi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda qulay investitsiyaviy muhit shakllantirildi, xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qonun yo'li bilan keng ko'lamdagi imtiyozlar, afzalliklar va kafolatlar tizimi yaratildi.

Prezidentimizning 2005 yil 11 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga asosan xorijiy investorlarga muayyan qulayliklar yaratildi. Xususan, 2005 yilning 1 iyulidan boshlab to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan va 20 turdagi (2012 yil II chorakdan boshlab)

iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonalar yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq, mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va obodonlashtirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, shuningdek Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod qilingan.

Yaratilgan imkoniyatlar natijasida viloyatimizda yildan-yilga xorijiy investorlar bilan hamkorlik aloqalari kengayib bormoqda, ular tomonidan kiritilayotgan sarmoyalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qilayotir. Bunday istiqbolli loyihalar yuzlab yangi ish o'rinlari yaratish, import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish imkonini beradi.

"Guzor Yi Jie" qo'shma korxonasi 2013 yili xitoylik ishbilarmon tomonidan kiritilgan 283 ming AQSh dollari miqdoridagi investitsiya hisobiga barpo etildi. Bu yerda o'rnatilgan zamonaviy texnologiyalar har oyda 4 million dona pishiq g'isht ishlab chiqarish quvvatiga ega. 40 nafarga yaqin kishi ish bilan ta'minlandi.

Ma'lumotlarga qaraganda, respublikamizda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va sohalarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida 4 mingdan ortiq korxonalar tashkil qilingan va muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Har yili 3 milliard AQSh dollaridan ko'proq, asosan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilmoqda, bu mamlakat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiya umumiy hajmining 26 foizdan ko'prog'ini tashkil qiladi. Bu esa xorijiy investorlarning mamlakatimiz iqtisodiyoti barqarorligi va pishiq-puxtaligiga, uni rivojlantirish istiqbollari qiziqishi hamda ishonchi ortib borayotganligidan yaqqol dalolat beradi.

Shunday qilib, Qashqadaryo viloyatida investitsiyaviy muhitni yanada takomillashtirish buyicha ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli viloyatda davlat kafolati ostidagi chet el kreditlari hisobidan o'lgan mablag'lar o'zlashtirilmoqda.

II.2.Qashqadaryoda samarali pul kredit siyosatining rivojlantirilishi

2013-2014-yillarda pul-kredit siyosati vositalarini takomillashtirish, pul bozorini mustahkamlash va bankdan tashqari pul aylanmasini kamaytirish, banklarning moliyaviy barqarorligi va kapitallashuvi darajasini oshirish, iqtisodiyot sub'ektlarini kreditlashni kengaytirish, shu jumladan, iste'mol va ipoteka kreditlarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli bank faoliyati olib borildi.

2014 yilda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni moliyaviy-quvvatlash maqsadida barcha manbalardan 1291,8 mlrd.so'mdan ortiq kredit mablag'lari berilib, ushbu kredit mablag'larining 683,4 mlrd.so'mi uzoq muddatli kreditlarni tashkil etdi.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga 2013 yilda 373 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratilgan bo'lsa, 2014 yilda 499,7 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 134 foizni tashkil etdi.

Ushbu kreditlarning 166,3 mlrd.so'mi kichik korxonalar va mikrofirmalarga, 253,1 mlrd.so'mi xususiy tadbirkorlarga, 80,3 mlrd.so'mni dehqon va fermer xo'jaliklariga berildi.

Viloyatda bank kassalariga naqd pul tushumini ko'paytirish maqsadida sanoat tovarlari va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqaruvchi yirik korxonalarining firma do'konlarini ochish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2010 yil 19 apreldagi PQ-1325-sonli, 2009 yil 6 apreldagi PQ-1090-sonli va 2006 yil 3 avgustdagi PQ-433-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 sentyabrdagi 445-sonli Qarorlari ijrosini ta'minlash yuzasidan viloyat bo'yicha emissiya qilingan plastik kartochkalar asosida naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini kengaytirish maqsadida 2014 yilda 1176336 dona plastik kartochkalar muomalaga chiqarilgan bo'lib, yil boshiga nisbatan 180087 donaga yoki 118,0 foizga oshdi.

Davlat daromadlariga 2214,4 mlrd.so'm mablag' jalb qilish rejalashtirilgan bo'lib, haqiqatda 2203,4 mlrd.so'mni tashkil etdi yoki ko'rsatkich 100,5 foizga

bajarildi hamda soliq va majburiy to'lovlar 26702,7 mln.so'mga ko'p jalb qilindi. Bu ko'rsatkich viloyatning shaxar va tumanlarida to'liq bajarildi.

2014 yilda viloyat mahalliy byudjet harajatlari 1538,3 mlrd.so'mga rejalashtirilgan bo'lib, haqiqatda dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 1542,7 mlrd.so'mga yoki 100,3 foizga ijro etildi.

2014 yilda ijtimoiy-madaniy tadbirlarga 1184,1 mlrd.so'm, ijtimoiy himoyaga 147,1 mlrd.so'm, kapital qo'yilmalar harajatlariga 43,2 mlrd.so'm va boshqa harajatlarga 168,3 mlrd.so'm mablag' yo'naltirildi.

Ochiq aksiyadorlik tijorat "To'ronbank"ning Qarshi filiali tomondan 2014-yilning o'tgan oylari davomida 65ta yirik kichik beznis buyyektiga ajratilgan kreditlar miqdori 2293 million so'mni tashkil etdi. Buning xisobidan joylarga 50 ta yangi o'rin yaratildi.

Prezidentimizning 2006-yil 23martidagi "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklaridachorva mollarini ko'paytirishni rag'barlantirish chora – tadbirlari "to'grisidagi qarori aholini, ayniqsa ehtiyojmand oilalarni ish bilan ta'minlash, bozorni chorvachilik mollari bilan to'ldirisgda shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarining rolini oshirishga qaratilgan muhum xujjat xisoblanadi. OAT "To'ronbank" Qarshi filiali jamoasi ushbu yo'nalishga xam aholi e'tibor qaratmoqda. Bu yo'nalish bo'yicha extiyojmand oilalarga 36 million so'm kredit ajratildi.

Xotin- qizlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab quvvatlash, ularni mehnat sharoitlarini yaxshilash maqsadidaberilgan kreditlar miqdori yildan-yilga oshib bormoqda. Bu ko'rsatkich 2014-yilning 1-iyuniga qadar 401 million so'mga yetdi.

Prezidentimizning "oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi xamda "Maxalliy nooziq- ovqat is'temol tavarlari ishlab chiqarish kengaytirishni rag'barlantirishborasidagi qo'shimcga chora tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari ijrosidoirasida bank tomonidanajratilgan kreditlar salmog'I sezilarli darajada oshdi. Ya'ni oziq –ovqat istemol tavarlari ishlab chiqarishni kengaytirish uchun 281 million, nooziq-ovqat istemol tavarlari ishlab chiqarishni kengaytirish

uchun 227,7 million so'm kredit ajratildi. Shuningdek, kichik beznis subyektlariga 808 million so'm oilaviy tadbirkorlik va xunarmandchilik rivojlantirish uchun 76 million so'm, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish maqsadida 556,7 million so'm, kollej bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatida jalb etish maqsadida 225 million so'm kredit ajratilib, yangi ish o'rinlari yaratilishiga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 2-avgustidagi "2013-2016 yillarida Qashqadaryo viloyatining sanoat salohiyatini oshirish dasturi"ga asosan Qarshi tumanidagi "Qarshi suv qurilish jihoz" xususiy korxonasiga "MAN" rusumli yuk mashinasi sotib olish uchun 192,7 million so'm Qarshi shahridagi "Kamandi original savdo plyus" xususiy korxonasiga Xitoyda ishlab chiqarilgan yuk ortuvchi texnika olish uchun 160 million so'm kreditlar ajratilib, 4 nafar kishining ish bilan bandligi ta'minlandi.

Prezidentimiz paxnomoligida mustaqillikning ilk yillaridanoq mamlakatimizda kichik beznis va xususiy tadbirkorlikni xar tomonlama rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda ushbu natijasi o'laroq, bugun mazkur soha iqtisodiyotimizning yetakchi kuchiga, axoli bandligini ta'minlashning eng samaralivositasiga aylanib ulgurdi. Kichik beznis va xususiy tadbirkorlikni izchil ravnaq toptirishda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan ko'p sonli moliya muassasalarining ham axolida o'rni bor. Jumladan, "Ipotikabank" ATB viloyati filiali jamoasining maqsadi xam shu ishbilarmonlarni qo'vvat- quvvatlash va ularning ishonchli xamkoriga aylanishdir.

So'nggi yillarda sezilarli ishlar amalgam oshirildi. Misol uchun, 2014 yilning 1 avgust xolatiga ko'ra, ushbu moliya muassasasi tomonidan kichik beznis va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 20,7 milliard so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Ushbu raqam rejadagi (18,9 milliard so'm)dan ancha ko'p. Natijada o'tgan davr mobaynida 330 ta loyihani xayotda tadbiiq etish buyicha moliyaviy yordam ko'rsatilib, 449ta yangi ish o'rin yaratilishiga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi "Oziq - ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kenkaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi" qaroriga asosan 2014-yil 1-

avgust xolatida bank tomonidan 2 milliard 249million so'mlik kredit ajratildi xamda 84ta yangi ish o'rin yaratildi. Buni Qarshi shahridagi "Asadbek biznes savdo" MCHJ faoliyati misolida xam ko'rish mumukun. O'tkan yili ushbu tadbirkorlik subyekyiga ajratilgan 150 million so'mlik bank krediti hisobidan 8 xil turdagi kolbasa mahsuloti ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi va 10 nafar yosg yigit-qizning ish bilan bandligi ta'minlandi.

Prezidentining 2009-yil 28- yanvardagi "Maxalliy nooziq – ovqat istemol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'barlantirish borasida qo'shimcha chora –tadbirlar to'g'risida'gi qarori ham viloyatimiz xalq xo'jaligini rivojlantirishga muhum xujjat bo'ldi.

Jumladan, Qarshi shaxridagi "Qarshi qurulish sanoat injiniring" xususiy korxonasiga qurulish materiallari (pishiqlik g'isht) ishlab chiqarish uchun 200 million so'mlik kredit taqdim etildi. Yangi ish o'runlari soni 10 tani tashkil qildi.

"Ipotika bank" ATIB bankning viloyat filiali tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2013-yil davomida 23,1 milliard so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi va bu orqali 608ta yangi ish o'rni yaratildi.

Misollarda murojat qilsak; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26- yanvardagi "Oziqlik –ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi" qaroriga asosan mazkur moliya muassasasi tomonidan 2013-yil davomida ushbu yo'nalishga 2 milliard 423 million so'm kredit yo'naltirildi. Natijaga 99 kishi ish o'rniga ega bo'ldi. Jumladan, Qarshi tumanidagi "Murodjon va Abduraxmonjon" mas'uliyati cheklangan jamiyat a'zolari bankdan 80 million so'm kredit olishib, non va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishlarini yo'lga quyishdi.

Xullas, Qashqadaryo viloyatida mazkur yillarda sanoat korxonalaridagi sub'ektlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida uzoq muddatli kredit mablag'lari berildi va bu sohadagi ishlar ayni paytda ham davom ettirilmoqda.

II.3 Qashqadaryoda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 fevraldagi "2014-2016 yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturi to'g'risida"gi PQ-2120-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat hokimining 2014 yil 10 fevraldagi X-41/02-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorlarga asosan Respublika mahalliyashtirish Dasturiga jami 7 ta, shundan 4 ta Respublika tasarrufidagi korxonalarining 4 ta loyihasi hamda 3 ta hududiy tasarrufdagi korxonalarining 3 ta loyihasi kiritilgan.

Ushbu loyihalar tomonidan 2014 yilda 99934,9 mln.so'm miqdorida mahsulotlar ishlab chiqarilib, belgilangan prognoz (1669,1 mln.so'm) ko'rsatkich 6 marta ko'pga bajarildi. Shuningdek, jami loyihalar tomonidan o'tgan davrda 24,3 mln.dollar miqdorida mahsulotlar eksporti amalga oshirildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida 41,2 mln.dollar miqdorida erkin ayirboshlanadigan valyuta iqtisod qilib qolindi.

Respublika tasarrufidagi 2 ta ("Cotton Road» qo'shma korxonasining poplin va "Sho'rtangazkimyomajmuasi" USHKning "MASTER BATCH" buyog'i ishlab chiqarish) loyihasi tomonidan 2014 yilda 843,6 mln.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, belgilangan prognoz ko'rsatkich 104,6 foizga bajarildi. Natijada 348,0 ming dollar miqdoridagi valyuta iqtisod qilib qolindi.

Dasturga kiritilgan «Sho'rtangazkimyomajmuasi» USHKning "MASTER BATCH" buyog'i va «Avtotraktorradiatori» qo'shma korxonasining qishloq xo'jalik texnikalari uchun sovutish radiatorlari ishlab chiqarish loyihalari tomonidan 98218,9 mln.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Hududiy tasarrufdagi 3 ta loyihalar tomonidan bosqichma-bosqich mahsulotlar ishlab chiqarish (setevoy) grafigiga ko'ra 2014 yilda 872,4 mln.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, belgilangan prognoz (862,5 mln.so'm) ko'rsatkich 101,2 foizga bajarildi.

Jumladan, Qarshi tumanidagi «Santexyig'majihoz» MCHJning polimer-marmar vannalar ishlab chiqarish loyihasi bo'yicha 1800 dona (442,1 mln.so'm) mahsulot ishlab chiqarish belgilangan bo'lib, amalda 1900 dona (475,8 mln.so'm) mahsulot ishlab chiqarilib, prognoz ko'rsatkich 107,6 foizga, Qarshi shahridagi «NASAF TOZA SIFAT» MCHJning sintetik yuvish moslamalari loyihasi bo'yicha 84,0 tonna (260,4 mln.so'm) mahsulot ishlab chiqarilishi ko'zda tutilgan bo'lib, amalda 128,0 tonna (396,6 mln.so'm) mahsulot ishlab chiqarilib, prognoz ko'rsatkich 152,3 foizga bajarildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida 360,0 ming dollar miqdorida erkin ayirboshlanadigan valyuta iqtisod qilib qolindi.

SHuningdek, Dasturga kiritilgan Yakkabog' tumanidagi "Buyuk Turon chinori" qurilish korxonasining ofset qog'ozlar ishlab chiqarish loyihasi bo'yicha korxonaga XRR bilan uskuna keltirish bo'yicha shartnoma imzolagan. Hozirda tuman Mikrokreditbanki orqali 375,0 ming dollar miqdorida kredit olish bo'yicha hujjatlar tayyorlanmoqda.

Hozirda ushbu loyihalardan tashqari Qarshi shahridagi "AZNUR SOF PLAST" MCHJning tabiiy tosh aralashmasidan tayyorlangan bezakli tosh ishlab chiqarish, "NASAF METALL" MCHJning sport trenajyorlari, arg'imchoqlar va skameykalar ishlab chiqarish loyihalari pasportlari elektron ko'rinishda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligiga ko'rib chiqish uchun taqdim etildi.

Bundan tashqari, Kitob tumanidagi "Voha mash'ali" qurilish korxonasining lok-buyoq, "Kitob marmar zavod" MCHJning mikrokaltsit, "LOK BUYOQ EXPRESS" XKning lok-buyoq, Shahrisabz tumanidagi "MARS ELEKTRONICS" MCHJning qo'riqlash signalizatsiyalari, "Axmedov Aktam Buxorovich" MCHJning karton korobka va karton qog'oz, Koson tumanidagi "Koson oltin qum" MCHJning bentonit ishlab chiqarish loyihalari bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi doirasida korxonalar tomonidan mahsulotlarni o'zlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirish (setevoy) grafigi asosida amalga oshirib borildi.

Viloyat bo'yicha tasdiqlangan grafikka asosan Halqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi doirasida 42 ta korxonalar tomonidan 8493,2 mln.so'mlik 55 ta shartnomalar imzolangan bo'lib, joriy yilda 8553,6 mln.so'mlik mahsulotlar o'zlashtirilib, shartnomalar ijrosi 100,7 foizga bajarildi.

Viloyat bo'yicha 7,7 ming tonna paxta tolasi qayta ishlanib, qayta ishlash darajasi 5,2 foizni tashkil etmoqda (Respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich - 33%).

Qurilish materiallariga bo'lgan talabni qondirish maqsadida pishiq g'isht, temir beton mahsulotlari, profnastil, cherepitsa, noruda materiallari va boshqa turdagi qurilish materiallari ishlab chiqarish loyihalari ishga tushirildi.

Jumladan, Shahrisabz tumanidagi "Hisorak-gidroqurilish" korxonasida pishiq g'isht, Yakkabog' tumanidagi "Yakkabog' nurli kelajak sari" MCHJda noruda materiallari, Muborak tumanidagi "Kapital qurilish mollari" MCHJda profnastil, Kitob tumanidagi "Kitob sanoat qurilish" MCHJda va "Kitob marmar zavodi" MCHJda mikrokaltsit ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda xom ashyodan tayyor mahsulotga o'tish yo'nalishida bir qancha tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, «Cotton-Road» qo'shma korxonasida tayyor matodan kiyim-kechaklar ishlab chiqarishga va EAUSS "Yakkabog'teks" qo'shma korxonasida ip kalavadan tayyor mato ishlab chiqarishga o'tildi.

Viloyatning Qarshi tumanidagi "Ravshan BA" korxonasida yiliga 5 mln. dona g'isht ishlab chiqarish bilan birgalikda yo'lak plitalari va bezakli g'ishtar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Yo'llarni iqtisodiyotning qon tomiriga qiyoslashadi. Chunki ular xalq xo'jaligini rivojlantirishda, o'zaro hamkorlik va sherikchilik munosabatlarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yo'llar ham bir necha turga bo'linadiki, ular orasida temir yo'l alohida ahamiyatga ega. Chunki u jahonda

arzonligi jihatidai suv yo‘lidan keyingi o‘rinda turadi va temir yo‘llar tizimini rivojlantirish mamlakatimiz uchun katta foyda keltiradi.

Shu bois ham istiqloqlning dastlabki yillaridanoq Yurtboshimiz rahnamoligida, tizimni jahon andozalari darajasida modernizatsiyalash va yangilash ishlari izchil amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2010 yil 21 dekabrda "2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to‘g‘risida" gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichra olib chiqdi.

Mazkur qaror asosida hozirda Maroqand - Qarshi - Termiz temir yo‘l uchastkasini elektrlashtirish loyihasi jadallik bilan hayotga tatbiq etilmoqda. Unga nafaqat "O‘zbekiston temir yo‘llari" davlat-aksiyadorlik temir yo‘l kompaniyasining o‘z mablag‘lari, balki davlat kafolatidagi chet el investitsiyalari ham jalb qilingan. Ya'ni, 140,8 kilometrlik Maroqand - Qarshi hamda 325 kilometrlik Qarshi - Termiz uchastkalarini elektrlashtirish uchun xalqaro moliya tashkilotlarining imtiyozli kredit mablag‘lari yo‘naltirilmoqda. Bu borada Maroqand – Qarshi uchastkasini elektrlashtirish loyihasi uchun Osiyo taraqqiyot banki bilan 100 million AQSh dollarilik bitim imzolangan. Qarshi - Tirdiz uchastkasini elektrlashtirish uchun esa Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligining 220 million AQSh dollari miqdoridagi imtiyozli kreditidan foydalanilmoqda.

Iqtisodiyot vazirligi va Davlat statistika qo‘mitasining "O‘zbekiston Respublikasining 2014 yilning birinchi yarmida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to‘g‘risida"gi axborotida qayd etilishicha, Maroqand -Qarshi va Qarshi - Termiz temir yo‘l uchastkalarini elektrlashtirish loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha yanvar-iyun oylarida tegishli ravishda 20,3 million va 12,1 million dollar o‘zlashtirilgan.

Loyiha doirasida baland tog‘larni zabt etib o‘tyvchi, Qashqadaryo va Surxondaryoni bog‘lab tyadigan 223 kilometr uzunlikdagi yangi Toshgyzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on temir yo‘l liniyasi ham elektrlashtiriladi. Ayni paytda Qarshi lokomotiv deposida elektrovozlarni ta'mirlash sexi bunyod etilayapti.

Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga qaraganda, O‘zbekiston temir yo‘llarining 11,6 foiz qismi viloyatimiz hududidan o‘tadi. Kompaniyaning Qarshi temir yo‘l uzeli va unga qarashli korxonalar va tashkilotlar Maroqand - Qarshi - Termiz uchastkasini elektrlashtirish loyihasining Maroqand - Qarshi va Qarshi - Oqrabot qismida ish olib borishmoqda. Uzeldan ma‘lum qilishlaricha, ayni paytda 140,8 kilometrlik Maroqand-Qarshi uchastkasida temir-beton ustynlar, simlarni ushlab turuvchi moslamalar to‘liq o‘rnatib bo‘lingan. Ayritom stansiyasigacha bo‘lgan masofaga osma tpoec tortilgan. Barcha bekatlarda qurilish ishlari yakuniga yetkazilgan. Ayni paytda tashqi elektr liniyalari tortilmoqda. Hozirgacha 38,8 kilometr uzunlikdagi temir yo‘l yuqori tezlikka moslashtirildi. Qarshi-Oqrabot yo‘nalishida ham ishlar izchil amalga oshirilmoqda.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, Maroqand-Qarshi-Termiz uchastkasining to‘liq elektrlashtirilishi poezdlardan foydalanish harajatlarini 23 foizga qisqartiradi. Yiliga 16 ming tonna dizel yonilqisi tejiladi, ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi oshadi, yuk tashish vaqti 1,2 soatga, yo‘lovchilarning manzilga yetish vaqti 40 daqiqaga qisqaradi. Eng muhimi, temir yo‘lining poezdlarni o‘tkazish quvvati 35 foizga oshadi. Qo‘shimcha ishchi o‘rinlari yaratish imkoniyati tug‘iladi. Bir so‘z bilan aytganda, mazkur loyiha iqtisodiyotimizning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 iyuldagi "Qarshi shahrini kelajakda qayta qurish rejasi va zamonaviy yo‘l-transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish Dasturi to‘g‘risida"gi qaroriga asosan barpo etilayotgan, xalqa yo‘lining 29 kilometrda qurilish ishlari qizg‘in davom etdi.

2014 yilda uning 26 kilometrda tuproq ishlari to‘la yakuniga yetkazildi va bir qismida qum-shag‘al aralashmasi yotqizish ishlari boshlab yuborildi. Halqa yo‘li qurilishida 600 nafarga yaqin odam va 200 ga yaqin maxsus texnika ishlayapti.

Yo‘l qurilishida uning sifatli bo‘lishiga alohida e‘tibor qaratilgan, 29 kilometrli yo‘lda janubiy xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo‘llarini saqlashga ixtisoslashtirilgan ta'mirlash, foydalanish korxonasi, "506 XXMK",

"Pudina Quvonchbek", "Hisorakgidroqurilish", "Nasaf temiryo'1 qurilish kompleks" mas'uliyati cheklangan jamiyatlari jamoalari mehnat qilmoqda. 26 kilometr yo'lda tuproq ishlari to'la yakunlandi.

inshoot barpo qilinmoqda. Jumladan: 9 ta yer ostidan suv o'tkazish inshooti, 15 ta temir-beton galereyali suv o'tkazish inshooti, 4 ta ko'prik qurilishi boshlab yuborilgan. Ko'priklarning biri Qashqadaryo daryosining ustidan o'tadi. U 130 metr uzunlikda bo'ladi. Shuningdek, Ayrum kanali, Chaman qishlog'idagi kanal va bitta kollektorning ustida ko'prik bunyod etiladi.

Qarshi-G'uzor yo'lining 6-kilometridan yo'1 o'tkazmasi, temir yo'1 bilan kesishadigan 2 ta joyda raz'ezd quriladi. Halqa yo'lining hozirgi kunda qurilishi davom etayotgan qismi 5 ta yo'1 bilan kesishadi. Ularning 3 tasi serqatnov yo'1 hisoblanadi, shuning uchun ham bu yo'llarda harakatlanish svetofor bilan tartibga solinadi.

Halqa yo'lining tuproq ishlari yakuniga yetgan qismlarida qum-shag'al aralashmasi yotqizish boshlab yuborildi. Mazkur aralashma 37 santimetr qalinlikda yirik aralashmali, so'ngra esa 6 santimetr mayda aralashmali asfalt qorishmasi yotqiziladi. Yo'ning eni 21,5 metrni tashkil etadi va 4 tasmali bo'ladi. Uning o'rtasidan boshidan adog'igacha beton to'siq bo'ladi.

Uzunligi 56 kilometrni tashkil etadigan halqa yo'lining qurilishi davom etayotgan qismida bunyodkorlik ishlarini olib borish uchun 261 milliard so'm mablag' ajratilgan. Quruvchilarga sement, yonilg'i va boshqa zarur materiallar kafolatlangan narxlarda yetkazib berilmoqda. Halqa yo'lining qurilishini 2016-yilda nihoyasiga yetkazish mo'ljallangan bo'lib, qolgan qismini loyihalash ishlari davom etmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, halqa yo'1 ishga tushishi bilan og'ir yuk mashinalari, ko'pgina transport vositalari shaharni aylanib o'tadigan bo'ladi. Bu esa o'z navbatida harakat xavfsizligiga, ekologik muhit tozaligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, Qashqadaryo viloyatida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqishni mahalliyashtirish Dasturiga asosan sanoat mahsulotlarining turlari

ko'payib, xalqimizning farovon turmush kechirishiga, aholining oziq- ovqat mahsulotlariga bo'lgan talablarini qondirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA

Mazkur malakaviy ishda keltirilgan umumiy ma'lumotlar asosida quyudagi xulosalarga kelindi;

1. Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida 2 million 830 ming aholi yashamoqda. Ularning 17,5 foizini maktab yoshidagi bolalar, 27 foizdan ortig'ini yoshlar, qariyb 50 foizini esa ayollar tashkil etadi. Keyingi 10 yilda viloyat aholisining soni 1,2 barobar o'sdi.

2. Mamlakatimizda iqtisodiyotimizning hal qiluvchi tarmoqlaridan biriga aylanib borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi viloyatda izchil rivojlanmoqda. Yalpi hududiy mahsulot tarkibida bu sohaning ulushi 52,4 foizni tashkil etadi, ish bilan band aholining 77 foizdan ziyodi ushbu sektorda mehnat qiladi, aholi daromadlarining yarmidan ko'pi mazkur tarmoq hisobidan shakllanayapti.

3. Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida zamonaviy uy-joylar qurish dasturi doirasida Qashqadaryo viloyatida 2 ming 510 ta yangi, shinam uy-joy va infratuzilma ob'ektlari barpo etildi.

«Obod turmush yili» deb nom olgan 2013 yilda 1 ming 50 ta uy-joy, 32 kilometr ichimlik suvi, 28 kilometrdan ziyod elektr tarmoqlari, 40 kilometrdan ortiq tabiiy gaz tarmoqlari va 24 kilometrdan ziyod yo'l qurish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borildi.

4. 2014 yil 1 iyul holatida viloyat bo'yicha xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi xo'jalik sub'ektlarining 46 tasi faoliyat yuritmoqda.

Mazkur xo'jalik sub'ektlari hozirgi kunda yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, turli xildagi beton asfalt, polimer, mikrokaltsid, bo'yoqlar ishlab chiqarish, vino mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash, neftgaz tarmoqlarida va boshqa sohalarda faoliyat olib borishmoqda.

2014-yilda Qarshi shahrida polimer quvurlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan "Saturn Plast" O'zbekiston-Xitoy va elektr o'lchov uskunalarini

ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Ekspress avtomatika" O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonalarini ta'sis etildi

5. Viloyatni istiqbolini rivojlantirish maqsadida 2014 yildan boshlab chet ellik xamkorlar bilan birgalikda ishlab chiqarish ob'ektlari jumladan, Shurtangazkimyo majmuasida Malayziya davlatining "Petronas" va YuAR "Sasol" kompaniyalari bilan birgalikda metan tozalash bazasida sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" unitar shu'ba korxonasi qoshida Singapur davlatining "Indorama Group" kompaniyasi bilan birgalikda gaz kimyo majmuasi qurilishi rejalashtirilgan

6. 2013 yilda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilashni jadallashtirishga yo'naltirilgan faol investitsiya siyosati amalga oshirildi. Viloyatga kiritilgan markazlashmagan va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 276 milliard 296 million so'mni tashkil qiladi. Ularning asosiy qismi aloqa va kommunikatsiya, sog'liqni saqlash, neft-gaz sohalari hamda qo'shma korxonalar (12 milliard 717 million so'm)ga yo'naltirilgan.

7. Qurilish materiallariga bo'lgan talabni qondirish maqsadida viloyatda pishiq g'isht, temir beton mahsulotlari, profnastil, cherepitsa, noruda materiallari va boshqa turdagi qurilish materiallari ishlab chiqarish loyihalari ishga tushirildi.

SHahrisabz tumanidagi "Hisorak-gidroqurilish" korxonasida pishiq g'isht, Yakkabog' tumanidagi "Yakkabog' nurli kelajak sari" MCHJda noruda materiallari, Muborak tumanidagi "Kapital qurilish mollari" MCHJda profnastil, Kitob tumanidagi "Kitob sanoat qurilish" MCHJda va "Kitob marmar zavodi" MCHJda mikrokaltsit ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 iyuldagi "Qarshi shahrini kelajakda qayta qurish rejasi va zamonaviy yo'l-transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi qaroriga asosan uzunligi 56 kilometrni tashkil etadigan halqa yo'lining qurilishi davom etayotgan qismida bunyodkorlik ishlarini olib borish uchun 261 milliard so'm mablag' ajratilgan.

TAVSIYA

Malakaviy ish natijalariga tayangan holda quyidagi **tavsiyalarni** berish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. Kollej litsey talabalarining sanoat korxonalaridagi ishchilar va xizmatchilar bilan davra suhbatlarini tashkil etish.

2. “Qashqadaro vohasi tarixi” fani uchun “ Qashqadayo sanoati; kecha va bugun” mavzudida visual materiallar tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

3. Ushbu mavzuni keyingi yillardagi materiallar bilan boyitib, ilmiy tadqiqoy sifatida yana davom ettirilsa maqsadga muvofiq bo”lardi .

Adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. "O'zbekiston", 2014.
2. Karimov I. A. O'zbekiston erishgan yutuq va marralar- biz tanlagan islohotlar yo'lining tasdiqidir. 22-jild.- T.: "O'zbekiston",2014.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajakimizning garovidir. T.: "O'zbekiston", 2012.
4. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish- mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. – T.: "O'zbekiston", 2011. T.19.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.–T.: "O'zbekiston", 2011.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
7. Karimov I.A. Mamlakatni moderinizasiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. – T.: "O'zbekiston", 2008. T.16.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013yil 2-avgustidagi "2013-2016 yillarida Qashqadaryo viloyatinign sanoat salohiyatini oshirish dasturi"
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 iyuldagi "Qarshi shahrini kelajakda qayta qurish rejasi va zamonaviy yo'l-transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi qarori.
- 10.Eng go'zal go'shaga aylanishga shaylanayotgan Qarshi. // Qashqadaryo, 2014 yil 15 aprel.
- 11.Shahrisabz: mintaqamizdagi eng go'zal va obod shahar bo'ladi. // Qashqadaryo, 2014 yil 4 mart.
- 12.Mamlakatimiz oziq-ovqat sanoati salohiyatining namoyishi. // Qashqadaryo, 2014 yil 1 may.
- 13.Kafolat, o'zaro ishonch va imkoniyat mevasi. // Qashqadaryo, 2014 yil 30 avgust.
- 14.Istiqlol sururi. // Qashqadaryo, 2014 yil 30 avgust.
- 15.2014 yil qurilishlari: yo'nalishdagi bunyodkorlik. // Qashqadaryo, 2015 yil 1 yanvar.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 1 noyabrda
“2013-2015 yillar davrida Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini
rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi qarori.

Internet saytlar

1. www.history.ru
2. www.zuyonet.uz
3. www.gov.uz
4. www.uza.uz
5. www.lex.uz
6. www.google.uz
7. www.qarshidu.uz
8. www.qashqadaryo.uz



Шўртан газ-кимё мажмуасининг умумий кўриниши.





2014 йил қурилишлари:



Йўналишдаги бунёдкорлик



4-5

